

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**Jozilov Akmal Jo'raqulovich**

**Yoshlarni turmush qurushga tayyorlashning psixologik asoslari**

«5140800-Pedagogika va psixologiya» yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini  
olish uchun

**MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

Ilmiy rahbar: dots. A.I.Saidov

Malakaviy bitiruv ishi «Psixologiya» kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2012 yil 25-maydagi yig`ilishida muhokama qilindi va  
himoyaga tavsiya etildi ( bayonnoma № 10 )

**Kafedra mudiri: p.f.n. dots. A. I. Saidov**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2012 yil \_\_\_\_\_dagi majlisida  
muhokama qilindi va \_\_\_\_\_ ballga baholandi (bayonnoma №\_\_\_\_)

YaDAK raisi: \_\_\_\_\_

A'zolari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Samarqand-2012

## KO'CHIRMA

**Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 14 nafari.**

**Majlis raisi: p.f.n. dots.A. Saidov**

**Kotibasi: D. Jo'raqulova**

## KUN TARTIBI

«Psixologiya» kafedrasida 2011-2012 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

**Eshitildi** 2011-2012 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri p.f.n. dots A.I.Saidov tanishtirdi va quydagilarni bayon qildi

2011-2012 o'quv yilida Pedagogika va psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Jozilov Akmal Jo'raqulovichning «Yoshlarni turmush qurushga tayyorlashning psixologik asoslari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini yozdi.

Ilmiy rahbari: dotsent A.Saidov ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi bor.

Shuning uchun so'znJozilov Amalga bersak. U malakaviy bitiruv ishininng mazmuni bilan tanishtirdi.

Jozilov Akmal malakaviy bitiruv ishininng mazmuni, mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amalga oshirgan ishlari haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga o'qituvchilar dots. Musinov S, o'qituvchilar Sulaymonov Mva Tovboeva M savollar berishdi. Savollarga Jozilov Akmal ijobiy javob berdi.

Jozilov Akmalning chiqishi, savol javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YaDAKga himoyaga tavsiya etish haqida fikr mulohazalar bildirildi.

## QAROR QILINDI

1. Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Jozilov Akmal Jo'raqulovichning «Yoshlarni turmush qurushga tayyorlashning psixologik asoslari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YaDAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Jozilov Akmalning ushbu malakaviy bitiruv ishiga Sam QXI, «Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti J. Sultonov taqirizchi deb belgilansin.

«Psixologiya» kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

**Majlis raisi: \_\_\_\_\_ p.f.n. A.Saidov**

**Kotiba: \_\_\_\_\_ D. Jo'raqulova**

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU «5140800-Pedagogika va psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Jozilov Akmal Jo`raqulovichning «Yoshlarni turmush qurushga tayyorlashning psixologik asoslari» mavzusida**

**MULOHAZASI**

O'zbekistonning ertangi porloq kelajagi qanday bo'lishi yosh oilalarni yuksak manaviyat ruhida tarbiyalashda ma'naviy meros imkoniyatlaridan foydalanishga, ma'naviy – mafkuraviy dunyoqarashga, ijtimoiy, siyosiy, demokratik jarayonlardagi faollikka bog'liq boladi.

Prezidentimizning taklifi bilan 2012 yil – “Mustahkam oila yili” deb elon qilinishi xalqimiz uchun muqaddas bo'lmish oila hayotimizning doimo tayanchi va suyanchi, jamiyatning hal qiluvchi asosiy bo'g'ini bo'lib kelganligiga ishoradir.

Jozilov Akmal Jo`raqulovichning «Yoshlarni turmush qurushga tayyorlashning psixologik asoslari» mavzusidagi bitiruv ishi bevosita yuqoridagi vazifalarning yechimiga qaratilgan bo'lib, mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmeti, faraz va vazifalari ishning kirish qismida ilmiy tilda bayon qilingan.

Mazkur ish uch bob, etti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning birinchi bobi(Yoshlarni turmush qurishga tayyorlashning nazariy asoslari)damutafakkirlarning yoshlarni oilaviy xayotgatayyorlash borasidagi qarashlari, Ijtimoiy psixologiyada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining yoritilishi, oilada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash sartlariga doir asosiy manbalaryoritilib berilgan. Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi (Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik – psixologik shart sharoitlari) da nikoh oldi omillari haqida yoshlar tassavvurlarini shakllantirish, yoshlarga juftlilik ma'suliyati va jinsiy tarbiya xususida tavsiyalar keltirilgan. Uchunchi bob(Qizlarni oilaviy xayotga psixologik tayyorlash masalasi)daoilada qizlarni mustaqil xayotga tayyorlasda oila va jamoatchilik xamkorligi, qizlarni mustaqil oilaviy xayotga tayyorlasning shakl va vositalari bo'yicha fikr-mulohazalarkeltirilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib Jozilov Akmal Jo`raqulovichning mazkur kurs ishini ijobiy baholayman va uni himoyaga tavsiya etaman.

**SamDU  
psixologiya kafedrası dotsenti**

**A. Saidov**

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU «5140800-Pedagogika va psixologiya»  
yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Jozilov Akmal Jo`raqulovichning  
«Yoshlarni turmush qurushga tayyorlashning psixologik asoslari» mavzusiga**

**TAQRIZ**

Oila – avlodlar davomiyligi qadriyat, urf odatlar va an`analarni qolaversa, xalqimiz ma`naviy merosining avloddan avlodga o`tishini ta`minlovchi omildir. Oila mustahkamligi jamiyat taraqqiyoti garovi hisoblanadi.

Har bir xalq va milliy an`analar tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida etibor qaratilgan. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasining pedagogik aspektlari mustaqillikning ilk yillaridanoq tadqiqotchilarning diqqatini tortib keldi. Yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash tafakkuri aynan mustaqillik yillarida keng rivoj topdi, aholi o`rtasida targ`ib va tashviq etila boshlandi, davlat dasturlarining bosh mohiyatini tashkil qildi. Yoshlarni avvalo, oilaviy turmushning barcha o`ziga xosliklariga ochiq va samimiy o`rgatish lozim.

Ushbu dolzarb vazifalar talaba Jozilov Akmal Jo`raqulovichning «Yoshlarni turmush qurushga tayyorlashning psixologik asoslari» mavzusigi bitiruv ishida o`z aksini topgan bo`lib, ishni yoritishda uch bob, yetti band, xulosa va adabiyotlardan iborat, tarkibiy tuzilma asosida nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Bitiruv ishining asosiy mazmunida mutafakkirlarning yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash borasidagi qarashlari, oilada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash saritllari nazariy jihatdan tahlil qilingan, shuningdek qizlarni oilaviy xayotga psixologik tayyorlash masalasi bo`yicha amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Mavzuga oid mavjud ilmiy va o`quv adabiyotlar bilan tanishish, olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida oilada farzandlar tarbiyasini amalga oshirishga yo`naltirilgan tavsiyalar berilgan. Umuman olganda mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzuga mos ravishda mazmunli qilib yoritilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Sam QXI, “Pedagogika, psixologiya**

**va o`qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti**

**J. Sultov**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I BOB. Yoshlarni turmush qurishga tayyorlashning nazariy asoslari</b> .....	7
1.1 Mutafakkirlarning yoshlarni oilaviy hayotgatayyorlash borasidagi qarashlari...	7
1.2 Ijtimoiy psixologiyada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining yoritilishi.....	8
1.3 Oilada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolar.....	16
<b>II BOB. Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik – psixologik shart sharoitlari</b> .....	24
2.1Nikoh oldi omillari haqida yoshlar tassavvurlarini shakllantirish.....	24
2.2 Yoshlarga juftlilik ma’suliyati va jinsiy tarbiya xususida tavsiyalar.....	36
<b>III BOB. Qizlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash masalasi</b> .....	53
3.1 Oilada qizlarni mustaqil hayotga tayyorlasda oila va jamoatchilik hamkorligi.....	53
3.2 Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning shakl va vositalari.....	56
<b>Xulosa</b> .....	65
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati</b> .....	67
<b>Ilova</b> .....	69

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi:** Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 62 foizini bolalar o'smirlar, xullas 30 yoshgacha bo'lgan yigit qizlar, ularning ma'lum qismini esa mustahkam yosh oilalar tashkil etadi. Mustahkam yosh oila jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishi va yuksalishini muhim subyektlaridan bo'lib, jamiyatda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda va taraqqiyotni harakatda keltirishida muhim ro'l o'ynaydi. Mustaqillik tufayli jamiyatimizda, ayniqsa uning ma'naviy-axloqiy va ruhiy dunyoqarashiga sezilarli darajada ta'sir etayapdi. Shuning uchun hozirgi vaqtda yosh oilalarning ma'naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ham ilmiy ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

2012 yilga «Mustahkam oila yili» deb nom berishimiz munosabati bilan davlat idoralari, nodavlat va ijtimoiy tashkilotlar, xayriya jamg'armalari bilan birgalikda ishlab chiqilib qabul qilinadigan dasturda ayni shunday ezgu tushuncha, orzu-intilishlarimiz o'z ifodasini topishi lozim.

Muayyan ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omillar orasida mazkur jamiyatning quyi bo'g'ini xisoblangan oilalarning mustahkamligi, ularda sog'lom ruxiy muhitning qaror topganligi, oilalarda jismonan sog'lom farzandlarning dunyoga kelayotganligi, ularning ma'naviy yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishlari yo'lida tashkil etilayotgan oila tarbiyasining samaradorligi kabi omillar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mustahkam oilalarni shakllantirish, onalik va bolalikni ijtimoiy jihatdan muxofaza qilish, oilalarda jismonan sog'lom, ruxan baquvvat bo'lgan farzandlarning dunyoga kelishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, samarali ravishda oila tarbiyasini tashkil etish jarayonida oilalar bilan jamoatchilik o'rtasida mustahkam hamkorlikni yuzaga keltirish masalalarini ijobiy xal etishga alohida e'tibor qaratildi. 1993 yilning fevral oyida "Sog'lom avlod" ordenining ta'sis etilishi hamda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi" ning qabul qilinganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida oilaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga yuqori baho berar ekan, quyidagilarni qayd etadi: "Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab extiyohlari va qadriyatlari shakllanadi. Bu esa oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".<sup>1</sup>

Mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog'lom ruxiy muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasining samaradorligini oshirish, oila muhitida tarbiyalanayotgan farzandlarning har jihatdan yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlariga alohida ahamiyat berish, bu yo'lda oila hamda jamoatchilik hamkorligiga erishish, oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash masalalari bir qator me'yoriy xujjatlar mazmunida o'z aksini topgan. Xususan, 2000 yil 24 fevralda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi talablarining hayotga joriy etilishi hamda bajarilishi yo'zasidan amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish Respublika Komissiyasining Oqsaroy qarorgohida bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan so'zlangan nutqda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi talablarini amalga oshirish jarayonida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar xususida so'z yuritilar ekan, bu jarayonda quyidagi xolatlarning ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tirof etilishi lozimligiga urg'u berildi:

- balog'at yoshiga yetgan qizlarni ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan davrlaridanoq oilaviy hayotga psixologik, jismoniy va tibbiy jihatdan tayyorlashni yo'lga qo'yish, ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar asosida muayyan fan (kurs)larning o'qitilishini tashkil etish;

- oila qurish ikki yosh o'rtasidagi shaxsiy ish emas, balki butun ijtimoiy jamiyat hayotiga daxldor, aloqador masala ekanligi, shu bois yoshlar ongida "Sog'lom oila" tushunchasini qaror toptirish, ular o'rtasida sog'lom farzandning dunyoga kelishini ta'minlovchi omillar, ikki yoshning bir-birlariga tibbiy hamda

---

1. A. Karimov. Yoshlarimiz- xalqimizning ishonchi va taynchi. – T: Ma'naviyat 2006 y

jismoniy jihatdan mosligi mustahkam oilani shakllantirishning sharti ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni targ'ib qilish;

- ikki yoshning tibbiy hamda jismoniy jihatdan bir biriga mosligi xolatini o'rganish.

Yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatning samarali tashkil etilishi bir qancha ijtimoiy muammolarning ijobiy hal etilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jumladan:

1. Jamiyatning ijtimoiy ma'naviy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi.
2. Jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining yuqori bosqichga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog'lom ruxiy muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasini samarali tashkil etish, farzandlar tarbiyasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishish, oilaviy mojaro, ajrimlarning oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

**Tadqiqotning maqsadi**- yoshlarni turmush qurishga tayyorlashning psixologik asoslarini tadqiq etishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalarini** maqsadimizdan kelib chiqib quyidagicha belgiladik:

Mavzuga oid ijtimoiy, falsafiy, pedagogik, psixologik, tarixiy-ilmiy o'quv adabiyot materiallarini o'rganib chiqish va umumlashtirish.

Yoshlarni turmushga tayyorlash borasida tavsiyalar ishlab chiqish.

Jinsiy tarbiyaning psixologik asoslarini tavsiflab berish

Pedagog-psixolog olimlarimizning va tadqiqotchilarning yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqidagi qarashlarini o'rganish va tahlil qilish.

Mavzu yo'zasidan ilmiy tadqiqot o'tkazish hamda ularning natijalarini tahlil qilish.

**Tadqiqodni ilmiy farazi (gipotezasi):** agar biz tanlagan mavzu bo'yicha ishlab chiqadigan ilmiy tajribadagi tadqiqot tadbirlarini maqsadga muvofiq qo'llab borilsa:

1. Yoshlarda oilaviy hayot haqida tasavvurlar shakllanadi. Nikohga ma'naviy yetukligi aniqlash imkoniyatini beradi.

2. Yoshlarda turmushga tayyorlash yo'zasidan tadqiqotlar chuqur, aniq uslubiy yo'nalishda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

3. Muammolarni asosi bo'lib xizmat qiladigan ilmiy nazariy manbalar bilan tanishib, tahlil qilib, o'rganish asosida yaratilgan umumiy xulosa va qisqacha sharxlarimiz bundan buyoniga mazkur muammolarga oid o'tkaziladigan tadqiqot ishlariga nazariy yo'nalish beruvchi materiallar bo'lib xizmat qilish mumkin.

#### **Tadqiqot metodlari:**

- tadqiqot muammosiga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini o'rganish, nazariy jihatdan tahlil etish;
- Yoshlarda oilaviy hayotga tayyorlikning mavjud holatini o'rganish;
- pedagogik ko'zatuvi;
- suhbat;
- anketa so'rovi;
- pedagogik tajriba.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasi o'zluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar; ta'lim-tarbiyani tashkil etishga oid pedagogika, psixologiya va metodika bo'yicha xorijiy tajribalar, nazariyalar va konsepsiyalar, shuningdek, respublikamiz olimlarining qarashlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ta'lim sohasida ilgari surilgan g'oyalardan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** shundan iboratki, unda yoshlarni turmush qurushga tayyorlasning pedagogik – psixologik asoslari ilgari surilgan.

## **I BOB. YOSHLARNI TURMUSH QURISHGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Mutafakkirlarning yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi qarashlari**

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabi allomalar bu masala yo'zasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o'z ahamiyatini yuqotmagan. Ular «Nasixatnoma», «Pandnoma», «Xikmatnoma» tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbaalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan uy bekalariga bog'liq ekanligi xaqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xodisalar xikoya qilinadi.

«Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshida o'g'liga atab «Qobusnoma» yozib, unda o'zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Vasila Karimova “Oila ma'rifati” ushbu risola muallifining “Oila ma'rifati” ruknida chop etilayotgan risolalarining dastlabkisi bo'lib, bu bevosita oilaviy hayot bo'sag'asida turgan yoshlar hamda endigina nikox qurib, yaxshi niyatlar bilan turmush qurgan kuyov va kelinchaklarga mo'ljallangan.

Unda asosiy e'tibor oila ilmining mazmun mohiyati, oila ma'rifatini tashkil etuvchi omillar va baxtli hayot kechirishni aslida hammaga ma'lum bo'lgan, lekin amalda har doim ham egallash oson bo'lmagan jihatlarga qaratilgan.

Muallif “Oila ma'rifati”ga erishish, ya'ni kelin-kuyovlar, yoshlar hamda ularning ota-onalar savodxonligini oshirish orqali, oilaviy muhitda ma'naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishga erishishni ko'zda tutgan.

A.Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo xalkat, yo saodat- yo falokat” masalasidir degan fikri o'zbekning kun tartibidan tushmasligi lozim. Chunki avvalgiga o'xshab qariyalar keksalar yoshlarni odob axloqqa

chaqirib yoshlar esa ularni xurmatlab, ularning o'g'itiga amal qilish udumi yo'qolib bormoqda. Har kim o'zi bilan ovora birovning gapi birovga yoqmaydi.

Kovolyov S.V. o'smir va qizlarda oila va nikoh tushunchalari haqidagi taasavvurlarga ega bo'lishlari juda muhimdir deydi. Nikoh va sevgi tushunchalari 13-15 yoshli bolalarda qarama-qarshi tushunchalar ekanligi bilan ko'zatiladi, ya'ni ular sevgi va nikoh bir-biriga teskari tushunchalar ekan deb tushunadilar. Talabalarda umr yo'ldosh tanlashda sevgi tushunchasi faqat 4 o'rinda, ya'ni xurmat qilish, ishonch, bir-birini tushunish kabi xislatlardan keyin turadi. Yoshlar oilani jiddiy qabul qilmaydilar. Natijada juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yib, keyinchalik oilaning muhimligini psixologik tan oladilar.

Bizning asosiy vazifamiz shuki, o'smirlarda oilaning qadrini, sevgi, nikoh oiladagi sevgini ro'li muhimligini va u uzoq va baxtli hayot garovi ekanligini o'qtirishdir.

Zapepin V.I. ning ta'kidlashicha talabalar bilan bo'lgan natijalarda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ularning tasavvurlaridagi umr yo'ldoshi real hayotdagi insonlarda katta farq qiladi va ularning talablariga umuman javob bera olmaydi.

Sisenko V.Aning oilaviy hayotga tayyorlashni asosiy yo'llanmalari.

- 1.Psixologik "Oilaviy hayotga kerak bo'ladigan bilimlar"
2. Pedagogik bolalarni tarbiyalashdagi qo'llanmalar.
3. Sanitar gigiyenik tarbiya "Oila hayot gigiyenasi"
- 4.Ekonomik va maishiy xizmat.

## **1.2. Ijtimoiy psixologiyada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining yoritilishi.**

Oila ijtimoiy jamiyatning kichik bo'g'ini sifatida muayyan xalq, millat yoki elatning milliy xususiyatlari, shuningdek, mavjud tuzum mazmunini o'zida namoyon etadi. Oilalarning mustahkaml bo'lishi, ularning totuvlik va farovonlikka erishuvi u mansub bo'lgan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy, ma'naviy rivoji, jamiyatda amal qilinayotgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, olib borilayotgan davlat siyosat mazmuni bilan belgilanadi. O'z navbatida jamiyat ma'naviy qiyofasi

oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog'liqdir. Shu bois asrlar davomida har qanday geografik makon va ijtimoiy zamonda ham yangi oilalarning shakllanishi, oilaviy hayotning yo'lga qo'yilishi, farzandlar tarbiyasini tashkil etish hamda sulola an'alarini davom ettirish masalalariga alohida e'tibor berib kelingan. Oilalarning ijtimoiy jamiyatdagi muhim o'rni hamda oila tarbiyasining shaxs kamolotini ta'minlashdagi roli xususida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etib o'tadi: "Oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruxiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Respublikada oilalar asosan ko'p sonli bo'lib, ularda turli avlod vakillari birga yashashadi va birga xo'jalik yuritishadi. Bu esa bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy qadriyatlardan, an'analardan baxramand qilish, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog'laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallashga intilishni, vatanparvarlikni o'rganadilar". Darxaqiqat, oila muhitida shaxsning har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur bo'lgan omillar, chunonchi, oila xo'jaligini boshqarish jarayonida oila a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi xuquqiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik, estetik va xokazo mazmundagi oilaviy munosabat, muomala aloqa aralashuvi uning ijtimoiylashuvi, ya'ni, ijtimoiy munosabatlarni yuritish jarayonida erkin, mustaqil harakat qilish layoqatini, qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mavjuddir. Shu bois O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida, ijtimoiy jamiyatda yangilanish, keskin o'zgarishlar yuz berayotgan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy raqobat qaror topayotgan o'tish davrida mustahkaml oilalarni shakllantirish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Sharq xalqlarida qiz bolalarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan, moddiy ta'minoti yuqori bo'lgan oilalar pokiza, oqila, dono, katta hayotiy tajribaga ega ayollarni o'z qizlari uchun enaga etib tayinlagan va ularga qizlarining tarbiyasini ishonib topshirganlar. Oila boshliqlari bo'lgan erkaklar oilaning moddiy ta'minotini yaratish ishi bilan band bo'lganliklari bois, ona doimo farzandlari yonida bo'lib, ularning tarbiyasi bilan

shug'ullangan. Shu sababdan ona farzandlarning kamoloti uchun javobgar, mas'ul shaxs hisoblangan. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etishda qizlarda ana shu mas'uliyatli vazifani bajarish, shuningdek, ro'zg'or hamda oila xo'jaligini yuritish, oilaning boshqa a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish borasidagi muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xalqimiz oilada yoshlar tarbiyasini tashkil etish borasida asriy tajribaga ega. Mazkur tajriba mazmuni sharqona odob - axloq, xayo - ibo, pokizalik xissi bilan yo'g'rilgan pand - nasixatlar, mutafakkirlarning qarashlari, ilmiy - nazariy va amaliy g'oyalardan tashkil topgan. Uzoq yillar davomida oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ana shu tajribaga tayanib ish ko'rildi. Ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish ishi mazmuniga nisbatan yangidan-yangi talablarni qo'ymoqda. Zero, yoshlarning ijtimoiy mavqieni oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ta'minlash, tafakkur doirasi va dunyoqarashini kengaytirish muammolari ijtimoiy munosabatlarning chuqurlashuvi va murakkablashuvi sharoitida har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega. Manfaatlar to'qnashuvi, bashariyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlarga nisbatan ziddiyatli yondoshuvi, axborotlarning tezkor almashuvi sharoitida oila tarbiyasini yo'lga qo'yishda samaradorlikka erishish, yoshlarda erkin, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish milliy o'zlikni saqlab qolish, barkamol avlod tarbiyasini yo'lga qo'yish, oila mustahkamlligini ta'minlash, uning farovonligini oshirish, oilada sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirishning eng muhim omillaridan biridir. Mustahkam oilalarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu yoshlar, xususan, qizlarni oila qurish, mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog'lom ruxiy muhitni qaror toptirish, farzandlar tarbiyasini samarali tashkil etish jarayoniga muvaffaqiyatli tayyorlashdir. Mazkur jarayonning mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, yoshlarda nikox hamda oilaviy hayot, shuningdek, ikki jins o'rtasidagi munosabatlar mohiyati borasida to'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi;

ikkinchidan, ularni nikox hamda oilaviy hayotni tashkil etish jarayoniga ruxiy jihatdan tayyorlaydi;

uchinchidan, yoshlarda nikoxga kirishish hamda oilaviy hayotni tashkil etish (oila a'zolari o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, oila a'zolari (qaynota, qaynona, qaynsingil va qaynog'alar) bilan muloqotni yo'lga qo'yish, oila xo'jaligini boshqarish, pazandalik hamda bichish - tikish ishlarini yuritish, biologik qovushish, farzandlar tarbiyasini olib borish va xokazo jarayonlarni tashkil etish borasida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantiradi. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab pedagogik jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda esa oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ota-onalarning oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida to'la ma'lumotga ega emasliklari. Milliy etnopsixologik xususiyat (Ota-onalarning o'z farzandlari bilan ma'lum masalalarda ochiq oydin muloqotda bo'la olmasliklari, ichki kechinmalarini atrofdagilarga oshkor qilavermaslik lozimligi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash erkak kishining burchlaridan biri ekanligi, farzandlar tarbiyasi uchun mas'ullik keksa avlod zimmasiga yuklangan asosiy vazifalardan biri ekanligi borasidagi qarashlar, shuningdek, kelin va kuyov munosabatlarining mazmunini ularga anglatish vazifasini qizning yanga (kelin oyi) lari, yigitning oshnalari zimmasiga yuklash an'analarning mavjudligi ota-onalarda oila sharoitida yoshlar, chunonchi, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to'la tushunmasliklariga sabab bo'lmoqda.

2. Ota-onalar tomonidan yoshlar, shu jumladan, qizlarni oilada mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash, o'tmish meros va unda ilgari surilgan g'oyalarni o'rganish, yosh avlodda milliy ma'naviy

qadriyatlar hamda milliy madaniy merosni o'rganishga nisbatan qiziqish va extiyojni qaror toptirish, ularga nisbatan xurmat uyg'otish, ularni asrash hamda boyitish borasida muayyan mas'ullikni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy harakatning yo'lga qo'yilishi natijasida necha ming yillar davomida yaratilgan va oila, uni tashkil etish, oilaviy munosabatlar mohiyati, farzandlar tarbiyasini olib borish masalalari to'g'risida fikr yurituvchi asarlarning fors, arab, shuningdek, qadimiy turkiy tillardan tarjima qilinishi, zamondosh pedagog, psixolog va fiziolog olim (mutaxassis)lar tomonidan so'z yuritilayotgan muammo doirasida tadqiqot ishlarining olib borilishi tufayli ayni vaqtda muayyan manbalar majmuasiga ega bo'ldik. Biroq ushbu manbalar majmuasi mustaqil oilaviy hayot bo'sag'asida turgan yoki o'smirlik hamda o'spirinlik yosh davrini o'z boshlaridan kechirayotgan qizlar xissasiga nisbat bo'la olmayapti. Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi axoli sonining qariyb 50 foizdan ortig'i (demak, ushbu ko'rsatkich umumiy raqamlarda ifoda etilsa, taxminan 12,5 mln. nafar kishiga to'g'ri keladi) ni yoshlar tashkil etadi. Respublikaning yetakchi kutubxonalarining fondi bilan tanishish oila, uning vujudga kelishi, oilaviy munosabatlar mazmuni, oila xo'jaligini yuritish, farzandlar tarbiyasini tashkil etish, oilaviy muammolar, oilaviy ajrimlar hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillar, ularni bartaraf etish, shuningdek, yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalalarini yorituvchi adabiyotlar soni taxminan 500 ta (o'zbek va rus tillarida chop etilgan adabiyotlar) dan oshmasligini ko'rsatdi. Oddiy matematik xisob-kitob asosida mazkur ko'rsatkichlar nisbatini topishga harakat qilaylik, ya'ni,  $12.500.000 : 500 = 25.000$ . Ushbu xolatda nisbat 25.000 ga teng bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Respublika kutubxonalarida mavjud bo'lgan, oila mavzusida yaratilgan adabiyotlarning har biri 25.000 nafar yosh (yigit qiz) ga bittadan to'g'ri keladi. Ota-onalarning ijtimoiy mehnat bilan bandligi, oilaviy munosabatlarning ayrim jihatlari xususida ota-onalar hamda farzandlar o'rtasida erkin muloqotning tashkil etilish imkoniyatining chegaralanganligi, ta'lim muassasalarida oilaviy hayotning barcha qirralari to'g'risida ma'lumotlar berish mumkinligi xaqiqatdan yiroq ekanligini xisobga olsak, 25.000 nafar yosh yigit - qizlarning 0,2 foizigina maxsus

adabiyotlar orqali oilaviy hayot, uni tashkil etish, oilaviy munosabatlarning tub mohiyati, ularni samarali yo'lga qo'yish, ota - ona hamda farzandlar o'rtasida samimiy, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatni o'rnatish, oilaviy muammolarni ortiqcha xissiyotlarsiz, janjallarsiz xal etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish shartlari to'g'risida ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'lar ekanlar.

3. Oila, shuningdek, ota-onalarga ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari hamda muayyan mutaxassislik yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi idoralar tomonidan ko'rsatilayotgan nazariy va amaliy yordamning ijtimoiy ehtiyojlarga nisbatan proporsional emasligi. Bizga yaxshi ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi aholisining qariyb 70 foizdan ortig'i qishloq va ovullarda istiqomat qiladilar. Mustaqillik sharoitida olib borilayotgan ijtimoiy o'zgarishlarning sezilarli samaralar berayotganligiga qaramay, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash, ularga maishiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish borasidagi jiddiy muammolarni to'la to'kis bartaraf etishga muvaffaq bo'linmadi. Ushbu xolat bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan muammolar tufayli o'z kuchini saqlab qolmoqda. Ya'ni, aholining ish o'rni bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, oylik maoshlarni ishchi xizmatchilarga doimiy ravishda va muddatida yetkazib berishdagi o'zgarishlar, ayrim jamoa xo'jaliklaridagi iqtisodiy tanglik, muayyan ishlab chiqarish korxonalarining sanasiyaga tushirilishi (bankrot deb e'lon qilinishi) va xokazo xolatlar mazkur joylarda faoliyat olib borayotgan xizmatchilarni ijtimoiy axvolining yomonlashuvini ta'minlovchi obyektiv omillar bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari hamda muayyan mutaxassislik idoralari oldida turgan ichki muammolar ham axoli, xususan, qishloq aholisi o'rtasida o'zluksiz, izchil va tizimli ravishda maishiy, tibbiy va ijtimoiy yordamlarni ko'rsatish imkonini bermayapti. Eng achinarlisi, oila va ta'lim muassasalari o'rtasida bir necha o'n yillar davomida shakllangan hamda yoshlar ta'limi va tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish borasida muayyan an'ana va tajribaga ega bo'lgan "Oila va ta'lim muassasasi" hamkorligi barham topmoqda. Bugungi kunda ular o'rtasida olib borilayotgan hamkorlik turli bosqichdagi ta'lim muassasalarining

ichki muammolari (ta'lim muassasasi binolarini ta'mirlash, ularda sanitariya xolatini saqlash, o'quvchilarni muayyan darajada rag'batlantirish va xokazo kabi extiyojlarni qondirish) ni ijobiy xal etish maqsadida pul mablag'larini yig'ishdangina iborat bo'lib qolmoqda.

Oila sharoitida yoshlar, shu jumladan, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muammosi doirasida qishloq axolisi o'rtasida olib borilayotgan tadbirlarning o'zluksiz, tizimli hamda izchilligi ta'minlanmayapti. Ma'lum vaqtda bu boradagi tadbirlarning o'tkazilishiga katta miqdordagi kuch va mablag' sarflangani xolda ayrim vaqtlarda mazkur mavzuning mutlaqo unutilishiga yo'l qo'yilmoqda.

4. Ommaviy axborot vositalari orqali oila moxiyati, oilaviy hayotni tashkil etish, farzandlar tarbiyasini muvaffaqiyatli olib borish, oilaviy munosabatlar mazmuni, shuningdek, oilaviy nizo va ajrimlarni keltirib chiqarayotgan sabablar va ularni bartaraf etish chora tadbirlari xususida namoyish (yoki chop) etilayotgan ko'rsatuv, eshittirish yoki chiqishlar saviyasining yuqori emasligi. Oila muammosiga doir mavzularda vaziyat yoki xolatlarni chuqur taxlil etishga asoslanib tayyorlanayotgan ko'rsatuv, eshittirish yoki chiqishlarning yo'qligi, mavjud ko'rsatuv, eshittirish yoki chiqishlar mazmunining bir yoqlamalik kasb etayotganligi ota-onalarning yoshlar, shu jumladan, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'la olmayotganligiga ham sabab bo'lmoqda.

5. Respublikada yo'z berayotgan ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar axoli ma'naviy axloqiy qarashlarining yangicha mazmun kasb etishiga olib keldi. Ayni vaqtda axoli ruxiyatida ro'y berayotgan kechinmalarning aksariyat qismini moddiy extiyojlarni qondirish ishtiyoqi egallagan bo'lib, bu xolat o'z-o'zidan ma'naviy extiyojlarni qondirish istagidan ustun mavqye egallashiga sabab bo'lmoqda. To'g'ri organizmning yashovchanlik qobiliyatini ta'minlash, tiklash va qayta tiklash manbai bo'lgan moddiy manbalarga ega bo'lmasdan turib, muayyan ishlab chiqarish yoki yaratuvchanlik faoliyatni olib borish mumkin emas. Biroq ana shu faoliyat mazmunini ezgu g'oyalar bilan boyitmay turib, ko'zlangan maqsadga ham

erishib bo'lmaydi. Insonni ijtimoiy jamiyat, atrofdagi kishilar yoki o'zi uchun foydali bo'lgan xatti harakatni tashkil etishga yo'llovchi omillardan biri bu uning oilasi muhitidagi tinchlik, osoyishtalik, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hamjihatlilik va hamkorlik xisoblanadi. Oilaviy tinchlik, osoyishtalik, oila a'zolari o'rtasida o'zaro hamjihatlilik va hamkorlikni qaror toptirishning kafolati esa yoshlar, shu jumladan, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga puxta tayyorlash, ularda ma'lum oilaviy qiyinchilik va muammolarni bartaraf eta olish layoqatini shakllantirish sanaladi. Bizning nazarimizda, yuqorida qayd etilgan muammolarning ijobiy yechimini quyidagi faoliyatlarni yo'lga qo'yish orqali ta'minlash mumkin bo'ladi:

1. Ota-onalar o'rtasida oila sharoitida yoshlar, shu jumladan, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muammosining nazariy va amaliy jihatlarini to'laqonli yoritib berishga xizmat qiluvchi targ'ibot va tashviqot ishlarini samarali, tizimli va o'zluksiz tarzda yo'lga qo'yish lozim. Ota-onalarda oila sharoitida yoshlar, shu jumladan, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash ularning porloq kelajagi va baxtli hayotlarini kafolatlovchi omil ekanligi to'g'risidagi tushunchani xosil qilish, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallashga bo'lgan ichki extiyoj va rag'batni shakllantirish tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlashga yordam beradi.

2. Respublika "Oila" ilmiy - amaliy Markazi raxbarligida oila muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan yetakchi olimlar, pedagog, psixolog, fiziolog, shuningdek, turli yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan, katta hayotiy tajriba va pedagogik maxoratga ega o'qituvchilarning ijodiy kuchidan samarali foydalanish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur vaziyatlarda ular tomonidan bildirilayotgan tashabbuslarni qo'llab quvvatlash, shuningdek, ular mehnatining ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib borishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

3. Oila sharoitida yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlar o'rtasida mustahkaml aloqani yuzaga keltirish ular o'rtasida doimiy ravishda axborot almashuvining yo'lga qo'yilishi, xususiy muammolarni xal etishda ularning bir birlarini qo'llab

quvvatlashlariga erishish, shuningdek, bir-birlariga nisbatan ishonch xissini qaror toptirish oilaviy ajrimlar sonining ortib borishini oldini olishga yordam beradi.

4. Ommaviy axborot vositalari orqali chuqur ilmiy taxlil hamda metodik tavsiyalarni berishga asoslangan oila moxiyati, oilani shakllantirish, oila a'zolarining o'rtasida o'zaro ishonch, ularning xis tuyg'u, kechinma va o'y fikrlarning xurmat qilinishiga asoslangan munosabatni qaror toptirish, farzandlar tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish, oila xo'jaligini samarali boshqarish va xokazo mavzulardagi ko'rsatish, eshittirish hamda chiqishlarning berib borilishi birinchidan, oilaviy muammolarning bartaraf etilishiga zamin xozirlasa. ikkinchidan, oila hamda ijtimoiy tashkilotlar o'rtasida axborot almashuvining yo'lga qo'yilishiga imkon beradi.

5. Ota-onalarda moddiy extiyojlarnigina emas, balki ma'naviy extiyojlarning ham birdek qondirilishi ro'y berilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga yordam berajagi borasidagi qarashni shakllantirish lozim. Insoniyat tomonidan to'plangan asriy hayotiy tajriba moxiyatiga ko'ra qayerda insonlar ma'naviy extiyojlarning qondirilishini asosiy o'ringa qo'ygan bo'lsalar, o'sha yerda moddiy ishlab chiqarish ham tez sur'atlar bilan rivojlangan. Bu esa insonlarning farovon turmushini yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

### **1.3. Oilada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolari**

Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi bolalarni tarbiyalashning xususiyatlari A.S. Makarenko ta'kidlashicha «bir oiladagi tarbiyaviy ish ammo boshqa oiladagi xudi shunday ishning aniq kopyasi bo'lmasligi lozim»

Hozirgi zamon taraqqiyoti har bir shaxsdan voqelikni to'g'ri tushunishni, tahlil qilishni, xulosa chiqarishni, axloqiy poklikni va hissiy asabiychi damlilmkni hamda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida faol bo'lishni talab qilmoqda. Ma'lumki yuqoridagi sifatlarni shaxsga oila asos soladi, shakllantiradi.

Inson hayotining porloq bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma'naviy

boylklarni yaratuvchi asosi oiladir. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini sifatida murakkab tarkibga, mazmunga ega bo'lib, u o'z faoliyatida oila a'zolari faoliyatining maqsad va vazifalarinigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatini ham o'zida aks ettiradi.

Oilaning murakkab, ko'p qirrali faoliyatining hayotiyliigi ikki tomonlamadir:

- birinchidan, oila jamiyatning kichik bir qismi bo'lib, undagi o'zgarishlarni o'ta sezgirlik bilan o'zida aks ettiradi. Shunga asoslanib oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiyaning bir tarkibi deb hisoblash lozim.

- ikkinchidan, oilaning murakkab, ko'p qirrali faoliyati uning vazifalari, tuzilishiga, umumiy turmush tarziga, oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, munosabatlariga va ijtimoiy faoliyatlariga bog'liqligini hisobga olish kerak.

Oila tarbiyasining o'ziga xosligi shundan iboratki, u bolalarga ota-onalarning ota- onalik, qon- qarindoshlik singari ko'plab kerak xislatlarni o'zati oilada tarbiyalanayotgan shaxsning ko'plab insoniy sifatlarini rivojlantirib, axloqiy kamolotini ham o'stiradi. Shu sababli oila tarbiyasi doimo mavjud, ko'rsatmali va serqirraligi bilan ajralib turadi.

Ota – onalar ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga ega va ma'naviy boy bo'lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar. Yoki aksincha, bularning barchasi oila tarbiyasining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ular faqat tarbiyalashning turli usullari ya'ni tushuntirish, maslahat berish, ma'qullash, jazolash, rag'batlantirish bilangina emas, balki shaxsiy namuna, birga ishlash orqali ham tarbiyalaydilar. Ota - onalarning bolalar faoliyatida ishtirok etishi, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali usulidir.

Masalan: Har tomonlama moddiy ta'minlangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasi, qashshoq, bechora hol oilada tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasi o'z mazmuniga ega. Birinchi oilada bolalar moddiy ne'matlarning Qadriga yetmagan bo'lsalar, ikkinchisida esa oila ta'minotini hisob- kitob, aql bilan tashkil qilishni bilishmaydi. Bu singari xususiyatlar oila tarbiyasining murakkabligini ko'rsatadi.

Ota - onalarning umumiy, madaniy, ma'lumot saviyalarining o'sib borishi va faolligining qaror topishi oila tarbiyasining mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Agar maktab oilaviy tarbiyashunosligiga ijobiy munosabat bilan yondashsa, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini yaxshi o'rgansa, ya'ni: ota – onalar obro'si, shaxsiy namunasi, bolalar hayotini tashkil qilish, o'z - o'zini tarbiyalashni nazorat qilish, o'zaro yordam, hamkorlik, ittifoqlik, hamjihatlik hamda oila tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan maqsadli foydalana olsa, oila tarbiyasining takomillashuviga erishadi.

Hozirgi zamon oilalari mavjud jamiyat bilan o'zviy bog'langandir. Shahar, qishloqlarning o'sishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, xalqning madaniy va turmush saviyasining oshishi bolalarni barkamol hamda oila tarbiyasi mazmuniga o'zgartirishlar kiritishni talab qilmoqda.

Tarbiya masalasiga yondashadigan bo'lsak, kam bolali oilalarga nisbatan ko'p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi ancha yengil kechadi. Chunki ko'p bolali oilalardagi bolalar, ota –onalarning xatti- harakatlarini, aka va opalarining ular to'g'risidagi g'amxo'rliklarini, ayniqsa bir-birlariga bo'lgan do'stona munasabatlarini, uydagi har xil vazifalarni sitqidildan bajarishlarini, kichiklarning kattalarga odob bilan munosabatda bo'lishlarini tabiiy holda ko'radilar, ko'zatadilar. Ota-onalarning bolalarga g'amhurligi teng taqsimlanadi. Kam bolali oilalarda esa buning aksi bo'ladi.

Katta oilada bola yoshligidan jamoaga moslashadi, o'zaro aloqalar tufayli ijobiy, zaruriy ko'nikmalar to'playdi. Kam bolali oilalarga nisbatan ko'p bolali oilalarda bolalar o'zaro narsalarni teng bo'lishda adolat tarozisi asosida taqsimlashga odatlanadilar.

Konstitusiyaning 64-moddasida «Ota - onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» va 66- moddasida «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota- onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar» deb ta'kidlanadi.

Kattalarga hurmat va bo'ysinish o'zbek oilalaridagi an'anaviy tarbiya uslublaridan biridir. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalash, ota- onalarning va katta yoshdagi barcha kishilarning namunasi bola shaxsini shakllantiruvchi, uning dunyoqarashiga, xulq- atvoriga, jamoa orasida o'zini tuta bilishga o'rgatuvchi omildir. Aynan oila bolani qadam qo'ydiradi, uning o'ziga xos xususiyati va ma'naviy qiyofasining shakllanishiga asos soladi.

Oilaviy tarbiyaning tub maqsadi, mazmuni bolalarni umuminsoniy xulq mezonlariga rioya qilgan holda ularni bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashdan iboratdir. Bulardan tashqari ularning g'oyaviy-siyosiy, madaniy oqartuv sohadagi qiziqishlariga e'tibor beriladi. Bu sohada turli oilalarda berilayotgan tarbiyaning bir-biridan farqi borligini ham unutmaslik kerak. Bizningcha, o'zbek oilalarida mehnat tarbiyasi berish va kasbga yo'naltirish quyidagi to'zilish va mazmunda olib boriladi deyish mumkin: (Buning ham o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud)

1. Bolalarga mehnatga iloji boricha ertaroq jalb qilish.
2. Bolalarni mehnat ko'nikmalariga o'rgatish, qurollantirish
3. Kasbga yo'naltirish (Ustoz- shogirdlik)
4. Bolalarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash
5. Murabbiylik qilish: a) oilada, b) mehnat jamoalarida.

Buyuk mutafakkir A.R.Beruniy «Har bir kishining qadr – qimmatini o'z ishini qoyil qilib bajarishidir»- degan.

«Insonning asosiy burchi, vazifasi mehnat qilishidir, chunki istalgan narsaga mehnat tufayli erishadi».

Yozuvchi G.Nikolayeva «Bola qalbi – oilaning fotosuratidir. Fotosuratgina emas, balki rengen ko'chirmasidir. U hamma vaqt oilaning ichki mohiyatini aks ettiradi. aga rota-onalar mansabparast, meshchan, ichi qora kishilar bo'lsalar, o'zlaridagi bu xususitlarni hammadan yashirishlari mumkin, lekin o'z farzandlaridan yashira olmaydilar», - degan edi.

Axloq-odobga oid hadislarining birida «Har bir ota o'z farzandlariga hulqu-odobidan buyukroq meros berolmaydi», - deb ta'kidlagan.

Hech narsa bolalarga namuna kuchidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Namuna, taqlid uchun asosli manba rolini o'ynaydi. Shaxsiy namuna esa tarbiya olib sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlari va boshqa faoliyatlari yig'indisidir. Atrofimizni o'rab turgan barcha narsalar bilan tanishishda bola kattalarning yordamiga ehtiyod sezadi. Yetarli darajala bilim, tajriba yo'qligi sababli ular kattalarning muomala va xatti-harakatlariga taqlid qila boshlaydi. Namuna sifatida katta yoshdagi kishilarning obro'si va kishilar bilan muomalalari bolalar xulqi hamda karakterlarining shakllanishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Oila tarbiyasida otalarning roli nihoyatda ulkan. chunki oilada er hamma vaqt bolalarining, turmush o'rtog'ining tayanchi bo'lib kelgan. Shu sababli oilada o'g'il doimo otasiga o'xshashga intilgan, uning xatti-harakatiga taqlid qilgan.

Oilada ota-onalar namunasi bolalar uchun hayot darsi hisoblanadi. Otaning onaning, ona mehnatiga jamiyatga, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati bola qalbida yaxshilik yoki yomonlik, ma'qul va noma'qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarni vujudga keltiradi.

Oila muhiti – bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarning yig'indisi va niHoyat kattalarning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi.

Maqsadga muvofiq muhit ota-onalari bilan noto'g'ri munosabatda bo'lmaydigan, bir-birlarini tushunmaydigan, hurmat qilmaydigan, bolalarning to'g'ri tarbiyalanishini doimo nazorat qiladigan hamda bolalariga shaxsiy namuna bo'la oladigan oilalarda tashkil topadi.

Bolalarga ota-onalarning xatti-xarakatlarigina emas, balki gapirilayotgan gaplar, o'zaro savol-javoblari uyga kelgan kishilar va qo'shnilar bilan bo'ladigan muomala hamda bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, amaldor kishi yoki oddiy kishi bilan ota-onaning muomalasi va o'zini ular oldida qanday tutishi, xarakatlari va hokazolar. So'z qudrati kuchga ega.

«Yumshoq, mehribonlik bilan aytilgan soʻz, shunday qudratli kuchki, uning bilan hech qanday jazo tenglasha olmaydi», - degan edi P.F.Lestgaft.

Oiladagi totuvlik, oʻzaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchilik kabila rota-onalar obroʻsini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar oʻrtasida ruhiy muhitni yaratadi va ularning kamolotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Otaning bolalarga va onaga mehr-muhabbati, yuksak axloqiy munosabatlari namunasi boʻlib, ular bolalar qalbini larzaga keltiradi, yaxshi his-tuygʻular bilan toʻldiradi, boshqalarga samimiy munosabatni tarbiyalaydi. Ota-onaning bolaga haddan ortiq sevgisi mehri, bolaga baxtsizlik keltiradi. Baʼzi pedagoglarning oilaviy tarbiya samaradorligi ota-onalarning bolalarga sarflagan vaqtlari bilan emas, balki ularning tarbiyasiga, oila jamoasining barcha bosqichlariga, ota-onalarning obroʻsi va shaxsiy namunalariga bogʻliq. Masalan, baʼzi otalar oilada bolalar bilan doimo birga boʻlmaydi, ammo bolalarga kuchli taʼsir koʻrsata oladi. Bunda ona-va oiladagi keksalarning hamkorligidagi ota haqidagi fikri bagʻoyat muhimdir. Otaning ish joyidagi mavqeyi ham muhim.

Bolalar bilan munosabatda ochiqlik, xulosa chiqarishda shoshmaslik, ragʻbatlantirish va jazolashda oʻylab ish tutish ota-onalar obroʻsida muhim ahamiyatga ega. Toʻgʻri, bolalarni baʼzan jazolash kerak, lekin bunda ularga axloq, odob mezonlari haqida tushuncha beri shva ularni soʻzsiz bajarish lozimligini ota-onalar talab qilsagina, ota-onaning obroʻsi boʻladi. Baʼzi ota-onalar oʻz bolalaridan talab qila olmaydi, natijada obroʻ ham boʻlmaydi. Maqsadga muvofiq oʻzaro munosabatlar va ota-onalarning bolalari bilan maʼnaviy yaqinligi, bolalarning ichki dunyosini sezish, qiziqish va intilishlarini oldindan bilishi, gʻamxoʻrlik qilish kabilar ota-onalarning obroʻsini oshiradi. Hozirgi zamon oilalarida ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi bosiqqligi, vazminligi ularga boʻlgan hurmati, diqqat-eʼtibori kam boʻladi, natijada ota-onalar bilan bolalar munosabatlarida koʻngilsiz voqyealar sodir boʻladi, oqibatda oilada ota-onalar obroʻsi pasayadi. Agar oilada ota-ona bilan bolalar oʻrtasida oʻzaro muloqot uchun qulay sharoit yaratilsa, ota-onalar obroʻsi boʻlsa, tarbiya uslublaridan oʻrinli foydalana olsa, bunday oilada bolalar toʻgʻri tarbiyalanadi va oʻz fikr-mulohazalarini roʻy-rost aytishdan qoʻrqmaydilar. Oilada

ota-onalarning bolalar oldida obro' qozonishi juda murakkab masaladir. Oilada ota-onalar buning uchun o'zlari to'g'ri, halol va adolatli bo'lishi shart. Ota-onalar o'zlarining xatti-harakatlari, bildirayotgan fikri, muomalasi hatto o'ziga mos ijobiy odatlari bilan bolalarini ishontira olishi ular obro'sining oshishida asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalar bolalarning o'qishi, ishi, xulq-atvori yoki ba'zi yutuqlari uchun va'da qilsalar uni bajarishi kerak. Agar va'dani bajarish imkoniyati bo'lmasa, uning sabablarini bolaga dalillar asosida isbotlab bersalargina o'z obro'sini saqlab qolishi mumkin. Eng avvalo bo'lar-bo'lmasga va'da bermasligi ma'kul.«Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang. Siz bolani turmushingizning Har bir onida, hatto o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz.» Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz- bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham bola buni darov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'llar bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundaye bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtanchoqltk qilsangiz yoki ichkilik ichsangiz, undan ham yomoni onani haqorat qilsangiz siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz. Ularga yomon tarbiya bergan bo'lsangiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati undan yomon bo'ladi», - degan edi mashhur pedagog A.S.Makarenko. Yuqorida ifodalangan sifatlar majmui oilada ota-onalar obro'sini tashkil etadi.

Oilada ota-onalar obro'si bo'lishi uchu nota-onalar hamma bolalarini teng ko'rishi lozim. Yana ota-onalar oilada kichik yoki nochor bolalarini katta bolalar tan jazosidan himoya qilishi va ma'naviy jihatdan ularni quvvatlashlari maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, hayotda ko'plab namunali va obro'li ota-onalarimiz ko'p. Agar ota-ona halol mehnat bilan mashg'ul bo'lsa, bola ularni hurmatlashga majburdir. Ba'zan esa ishda juda yaxshi mutaxassis bo'lgan ota-onalar bolalariga namuna bo'la olmaydilar. Natijada ular bilmagan holda shunday

oilalarida ishyoqmas, ko'chabezori erkatoylar bo'lib yetishadi. Bizning nazarimizda bolalari bilan do'st, ularga diqqat e'tibor bilan qaraydigan qayg'ulariga hamdard, hursandsiliklariga sherik bo'luvchi bolalarga ma'naviy ko'maklashuvchi ota-onalargina haqiqiy ma'noda namuna bo'la oladilar.

Bizningcha ota-onalar o'zlarida quyidagi sifatlar bilan o'z farzandlariga namuna bo'lishlari lozim:

1. Ota-onalarning axloqiy jihatdan shaxsan namuna bo'lishlari.
2. O'zlariga topshirgan ishni mas'uliyat bilan bajarishlariga.
3. Bolalar tarbiyasidagi burchlarini mas'uliyat bilan his qilishlariga va bajarishlariga.
4. Mehnatda shaxsan namuna ko'rsatishlariga.
5. Barcha farzandlarini teng ko'rishga.
6. Farzandlarining harakter xususiyatlarini yaxshi bilishga.
7. Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning turli xil metod, usul va vositalarini yaxshi bilish hamda ulardan oqilona foydalana olishga.
8. O'z obro'sini oilada doimo saqlashga.
9. Farzandlarini doimo mehnat topshiriqlari bilan band qilishlariga va talabchanliklariga.
10. Oila xo'jaligini mohirlik bilan boshqara olishlariga.
11. Oila tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan bog'lab olib borishiga.
12. Ota- va ona talablarida birlikning bo'lishiga.
13. Ota-onalarning oilani iqtisodiy ta'minlashga va hokazo.

## **II. BOB. YOSHLARNING OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI.**

### **2.1. Nikoh oldi omillari haqida yoshlar tasavvurlarini shakllantirish.**

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi.

Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo'lmaganidek, Sizing qurajak oilangizning ham o'ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillaridir.

Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri no o'rin bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, bo'zilib ketishi xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, bo'zilib ketmagani taqdirda ham, unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi. Xo'sh, shu poydevorlar ya'ni nikoh oldi omillari nimalardan iborat?

Gap nikoh oldi omillari haqida borar ekan, shun ita'kidlab o'tish joizki, nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo'lmish psixologik omillarni o'zida mujassamlashtirgan, ko'p qirrali omillar kompleksidan iborat bo'lib, oila qurayotgan yoshlarning, shu o'zlari qurayotgan oilaviy hayotlariga qaydarajada «yetilgan»liklarini belgilab beradi. Bu yerda eng muhimi shu yoshlarning oilaviy hayotga, nikoh talablariga qaydarajada javob beraolishi nazarda tutiladi.

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudoddir. Agar odamning u yoki bu faoliyatga «to'la yetukligi» haqida gapiradigan bo'linsa, demak bu uning ma'lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun ham odamning nikohga yoki biron-bir faoliyatga yetukligi haqida gapirilganda, «yetuklik» tushunchasi tor ma'noda o'rinli bo'la olmaydi. Shuning uchun ham odamning «yetukligi», ayniqsa, nikohga, oilaviy hayotga «yetukligi» haqida gapirilganda, bu tushunchadan ma'lum bir umum qabul qilingan standart, o'rtacha me'yor, ma'lum bir shartli «o'lchov birligi», ko'rsatkichlar va shu kabilar sifatidagina foydalaniladi.

Masalan, barcha o'quv yurtlari (maktab, lisey, kollej, institutlar) uchun bitirish imtixonlari (davlat imtixonlari tizimi, diplom ishlari himoyasi tizimlari kabilar) mavjud bo'ladi va ular yordamida bitiruvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'rtacha bilimlar va malaka yig'indisini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa ularga keyinchalik yana o'qishni davom ettirish yoki ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha ishlashi mumkinligi haqida ma'lum bir huquq beradi. Shu nuqtai nazardan olinganda, «yetuklik» — rivojlanishning ma'lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatiiy va miqdoriy harakteristikasini ma'lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o'ta murakkab, biron-bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'linmaydigan individual harakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

Shu keltirib o'tilganlarning o'zi yoq nikoh oldi omillari qaydarajada murakkab harakterga ega bo'lgan muammolardan ekanligini ko'rsatib turibdi.

Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan psixologik adabiyotlarda nikoh oldi omillarining turlicha shakllari, ko'rinishlari farqlanadi. Quyida sizning e'tiboringizga ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni havola etamiz:

Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy havotga yetukligi: ularning oila qurish motivlari: ularning oila qurishgunlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari: ularning o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta, bu omillarning har bir turli yoshlarda turlicha harakterda bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularning har biri o'z navbatida yana bir necha turlarga farqlanadi.

Masalan, nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsi yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlarga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar biroz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan harakterlanadi.

Masalan, odamning jinsiy yetukligi o'ziga xos omillarga ega. Klinik ko'zatishlar ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy yetuklik (balog'atga yetish) 12-14 yoshgacha, o'g'il bolalarda esa 14-16 yoshga to'g'ri keladi. Albatta, bu yetuklik ba'zi bolalarda ertaroq, boshqa birlarida kechroq ro'y berishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar  $\pm 2$  yoshga farq qilishi mumkin. Ayrim tibbiyot olimlari bolalarning to'la jinsiy yetilishlari uchun yana 2-3 yil kerak bo'ladi, deb hisoblaydilar.

Jinsiy yetilish qat'iy jinsiy ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi. Bu davrga kelib bolalarda ikkilamchi jinsiy alomatlar namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy sekresiya bezlarining faolligi ortadi. Qiz bolalarda oylik sikllari (menstruasiya), o'g'il bolalarda pollyusiyalar ro'y bera boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularda pubertat davr boshlanadi. Demak, bu davrga kelib bolalarning moddiy va ma'naviy qiziqishlarining o'sib borishi bilan bir qatorda jinsiy ehtiyojlar shaxs faolligining kuchli manbalaridan hisoblanib, u turli psixologik va ijtimoiy shakllarda namoyon bo'la boshlaydi.

Jinsiy maylning, jinsiy ehtiyojning yuzaga kelishi odamning biologik rivojlana boshlashining o'ziga xos bosqichidir. Ular bola ruhiyatining rivojlanishiga, shaxsining shakllanishiga, hayot faoliyatining boshqa jihatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Jinsiy hayotning ko'plab muammolarini nafaqat yoshlarga, balki o'zoq vaqt oila qurgan, farzandli bo'lgan katta yoshlilarga ham tushuntirib o'tish lozim bo'ladi, chunki ularda ham shu asosda ko'plab jiddiy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Jinsiy munosabatlar masalasi o'ta nozik masaladir, bu borada ko'pincha «yolg'on, bachkanalarcha uyatchanlik»ka duch kelinadi. Ba'zi bir ota-onalar va o'qituvchilar hatto maorif rahbarlari ham maktabda jinsiy tarbiya berish masalasiga e'tiroz bildiradilar va «Jinsiy tarbiya, jins masalasiga oid barcha zarur ma'lumotlar biologiya kurslarida berilgan, buning ustiga «ota-bobolarimiz bunday jinsiy savodxonliksiz ham binoyidek yashaganlar», qabilida mulohaza yuritadilar. Albatta, bunday nuqtai-nazar o'ta qoloq, bugungi kun nikoh-oila munosabatlari talablarini, hozirgi zamon oilasi funksiyalarini hisobga olmay chiqarilgan xulosalardir. Aynan shunaqa yo'llar bilan yoshlarga jinsiy tarbiyadek o'ta nozik va zarur masalalar yo'zasidan beradigan har qanday sanitar-gigiyenik oqartuv ma'lumotlarning ahamiyati butunlay kamsitib kelinmoqda. Bu esa millionlab o'smirlarning jinsiy balog'atga yetishish vaqtida g'afalda qolishlariga va buning oqibatida ayrim hollarda hayotda to'zatib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Hech nima bilan asoslanmaydigan xavotir, hadik, gohida esa haqiqiy vahima zaminida o'smir xulqida turli xil og'ishlar, nerv-fiziologik bo'zilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bularning barchasi sanitar-gigiyenik tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va jinsiy tarbiya berilmaganligining natijasidir. Bu masala, ayniqsa, bizning etnosimizda o'ta jiddiy mohiyat kasb etadigan masaladir.

Jinsiy tarbiya masalasiga ko'pincha yo alohida e'tibor talab qilinmaydigan va hech qanday qiyinchilikni yuzaga keltirmaydigan, har bir yosh guruhi uchun osongina o'zlashtirish mumkin bo'lgan, yoki o'ta shaxsiy, intim, ko'pchilik orasida, ayniqsa, bolalar orasida muhokama qilib bo'lmaydigan masala tarzida

qaraladi. Shu kabi mulohazalar qator mamlakatlarda, ayniqsa sobiq ittifoqda jinsiy tarbiyaga oid materiallarni, bunga taalluqli tadbirlarni maktab dasturidan chiqarib tashlanishiga asos bo'lgan. Bu o'rinda jinsiy tarbiyani, organizmning faoliyati haqidagi bugungi kunda har bir odam o'zlashtirishi, bilishi zarur bo'lgan sanitar-gigiyenik, psixogigiyenik ma'lumotlar bilan o'zviy bog'liq tarzda qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy hayotda esa jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Turli mutaxassislar tomonidan berilgan ma'lumotlarni kompleks tahlil qilgan holda aytish mumkinki, har bir to'rtinchi ajrashgan er-xotinlarda (ajralishlarning 29 %ida) jinsiy mutanosiblikning u yoki bu tarzda bo'zilishi (er-xotinning jinsiy nomutanosibli) sabab bo'lmoqda.

Albatta, o'zaro sevgi, ishonch va hurmat hislari, qiziqishlar va niyatlarning umumiyliги hislari qisqa vaqt oralig'ida yuzaga kelgan va shunga ko'ra shoshilinch oila qurgan juftlarga jinsiy hayot psixologiyasi borasidagi bilimlar o'z-o'zidan yordam bera olmasligi mumkin. Bunday tezlikda, qisqa vaqtda (sovchilar, qarindoshlar orqali bir-ikki haftadayoq) yuzaga kelgan oilalar miqdori, ayniqsa, so'nggi yillarda bizning millat vakillari o'rtasida ortib bormoqda. Yoshlarning bir-birlariga nisbatan bo'lgan yoqtirishi va ijobiy emosional hislari kompleksiz bu bilimlarning samarasi past bo'ladi. Ular faqat er-xotinlar bir-birlarini yoqtirganlari, bir-birlari uchun jozibali bo'lgan holatlardagina, er-xotinlarning intim hayotini muvofiqlashtiradi. Boshqa tomondan, nikohdagi jinsiy hayot psixogigiyenasi muammolaridan qandaydir «bo'lmag'ur, uyat narsa» sifatida voz kechish ham kerak emas. Chunki, ko'pchilik hollarda jinsiy hayot psixogigiyenasi sohasidaga ilmiy bilimlar yosh er-xotinlarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ayanchli xatolardan qutulishga va shu bilan o'z nikohlarini saqlab qolishlariga yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, jinsiy yetuklik odam anatomiyasi va fiziologiyasi nuqtai nazaridan yetarlicha aniq va ravshan bo'lgan hodisadir. Biroq uning psixologik, axloqiy jihatlari o'ta murakkab. Shuning uchun ham odamning nikohga jinsiy

yetukligi deyilganda, uning fiziologik nuqtai nazardangina yetilishini nazarda tutish jinsiy yetuklikning to'liq mohiyatini bildirmaydi, bundan tashqari odam jinsiy hayot psixogigiyenasi borasida ham zarur ilmiy psixologik bilimlarga, to'g'ri tasavvurlarga ham ega bo'lmog'i zarur. Bu esa, shubhasiz, alohida e'tibor, maxsus tayyogarlik, o'qitishni talab qiladigan jarayondir.

Yoshlarni nikohga jinsiy yetuklik masalasidan tashqari yuqorida keltirib o'tilganidek, yana bir nechta ijtimoiy yetuklik turlarini farqlash mumkin. Bular: jinsiy, fuqarolik, kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va psixologik yetukliklardir. Bularning orasida yoshlarning jinsiy (fiziologik) yetukligi boshqalariga qaraganda ancha erta amalga oshadi, quyida bu masalalarga bog'liq ravishda yana qanday muammolar majmuining yuzaga kelishi mumkinligi haqida to'xtalib o'tamiz:

Fuqarolik. Huquqiy yetuklik bu odamning huquqiy jihatdan balog'atga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimizda bu 18 yosh deb ko'rsatilgan. Bu vaqtda u Konstitusiyada belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalana oladigan bo'ladi. 18 yoshni shaxsning huquqiy yetuklik yoshi deb hisoblash mumkin.

Kasb-hunar yetukligi – bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, bir tomondan u qandaydir bilim yurtini, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lish bilan belgilanadi. Biroq odam u yoki bu bilim yurtini (kollej, litsey, institutni) bitirganidan keyin o'zi tanlagan kasbi bo'yicha bir necha yil ishlab ko'rishi kerak bo'ladi va shundan keyingina uning kasb-hunar yetukligi haqida gapirish mumkin.

Shu bilan birga ba'zi bir kasblar bo'yicha 19-20 yoshlardayoq kasb-hunar yetukligiga erishish mumkin bo'lsa, boshqalarda, masalan, jarroh-shifokorlikda kechroq 29-30 yoshga yetganda bunga erishish mumkin.

Shaxs yetukligining yana bir jihati ijtimoiy-iqtisodiy yetuklikdir. Bunda odamning o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlay ola bilishi

nazarda tutiladi. Yoshlarning oila qurishlarida, ularning iqtisodiy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega. Bu o'rinda ham turlicha yosh chegaralari mavjud, yoshlarning ayrimlari 18-19 yoshidayoq ota-onasi oilasidan iqtisodiy mustaqillikka erishishi mumkin, boshqalari esa 25-30 yoshlarida ham ota-onalarining moddiy yordamidan foydalanadilar.

Bu yetuklik jihatlari orasida shaxsning ma'naviy va axloqiy yetukligi haqida gapirish eng murakkabidir. Chunki bu jihat haqida aniq bir mezon va tavsif hozircha ishlab chiqilmagan.

Shunday qilib, «yetuklik» tushunchasi o'zida ko'plab jihatlarni mujassamlashtiradi. Shuni aytib o'tish joizki «yetuklik» tushunchasi, albatta, ma'lum bir hayotiy tajriba bilan, ya'ni «hayotiy bilimlar» bilan o'zviy bog'liqdir. «Hayotiy bilimlarni o'zlashtirish», «Hayot universitetlaridan» o'tishning ham o'ziga xos individual xususiyatlari mavjud. Kimdir 20 yoshidayoq «hayotni yaxshi bilib oladi», kimdir 30 yoshida ham bolaligicha qolaveradi. Bunga mavjud ijtimoiy sharoit, jamoatchilik va ijtimoiy tartibning ta'siri katta. Ma'lumki, oldingi vaqtlarda, ayniqsa, urush yillari bolalar kattalar ham hamma vaqt uddalay olavermagan hayotiy qiyinchiliklarni boshidan kechirganlar. U vaqtlarda 12-14 yoshdanoq bolalar onalariga oilani ta'minlashda yordam berganlar. Shuningdek, shahar va qishloq joylarda istiqomat qiladigan, kam farzandli va ko'p farzandli oilalarda, nuklear yoki ko'p tabaqali oilalarda o'sayotgan bolalarning ham oilani moddiy, ijtimoiy ta'minotiga hissa qo'shish, bu ishlar bilan shug'ullanish muddatlari va miqdori turlichadir. Hayotni bilish, hayotiy tajribalar turli individlarda turlicha jadallikda amalga oshishi mumkin va bu o'rinda qandaydir bir yosh, vaqt oralig'ini ko'rsatish mutlaqo mumkin emas. Buning ustiga hayotni, bizni o'rab turgan atrof olamni bilish o'z navbatida cheksizdir.

Chunki hech kimga sir emaski, bugungi kunda yoshlarning kattalashuvi, voyaga yetishi juda jadal amalga oshmoqda. Yuqoridagicha guruhlashga ko'ra bir demografik yosh guruhiga kirgan 20 va 24 yoshlilarning yetukligi sifat jihatidan turli darajaga egadirlar. 25 va 29 yoshdagilar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. 29 yoshga kelib kasb-hunar yetukligi nihoyasiga etadi va bu davrda

aksariyat yoshlar oila qurib bo'lgan va hatto farzandli bo'lishga ham ulgurishadi. Shunday qilib, 29 yoshdagilar 25 yoshdagilarga qaraganda hayotiy tajribalariga ko'ra ham va boshqa asosiy komponentlarga ko'ra ham sezilarli darajada farqlanib turadi.

O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi»da erkak va ayollar uchun minimal nikoh yoshi sifatida 18 yosh ko'rsatilgan. Bu yoshni mahalliy hokimiyat qaroriga ko'ra alohida istisnoli holatlarni hisobga olib, ayollar uchun bir yoshga qisqartirish mumkin.

Turli mamlakatlarda urf-odatlar va milliy an'analarga bog'liq ravishda erkak va ayollarning turlicha minimal nikoh yoshi belgilangan. Masalan, erkaklar uchun u 14 yoshdan (Irlandiya, Ispaniya va Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarida) - 21 yoshgacha (Polsha, Avstriya, Germaniya va ayrim Skandinaviya davlatlarida) bo'lgan davr orasiga to'g'ri keladi. Ayollar uchun minimal yosh odatda yoki erkaklar bilan teng deb, yoki ulardan bir necha yosh kichik deb belgilanadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yoshlarning voyaga yetish masalasi, ularning nikohga yetukligi ko'rsatkichlari ayrim hollarda bir-biriga qarama-qarshi va noturg'undur. Odamning axloqiy va ma'naviy qiyofasi, uning shaxsiy ta'bi, didi, odatlari hayot davomida bir necha bor o'zgarishi mumkin. Hozirgi davrda bilimlar va hayotiy tajribani yig'ish g'oyat yuqori jadallikda amalga oshib bormoqda. Shunga ko'ra, 16 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan davrni oila qurish uchun garmonik davr deb hisoblash qiyin. Chunki bu davrda yoshlarning o'ziga bevosita bog'liq bo'lmagan ko'plab obyektiv sharoitlarni, qarama-qarshi holatlarni ko'zlash mumkin. Masalan, yoshlarda jinsiy yetilish 14-16 yoshlarda, huquqiy yetuklik - 18 yoshda, kasb-hunarni egallash va kasbiy yetuklik ko'p hollarda 28-30 yoshlarda yuzaga kelishi mumkin. Ota-onalarga boqimanda bo'lmaslik darajasida iqtisodiy mustaqillikka erishish esa, odatda 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan vaqt oralig'ida amalga oshadi.

Ko'pincha katta avlod vakillari, yoshlarni yetuk emaslikda, hayotga tayyor emaslikda ayblaydilar, lekin ayni paytda bunday yetilmaslikning obyektiv sabablari va shart-sharoitlari e'tibordan chetda qoladi. Yoshlarning ijtimoiy va

iqtisodiy hayotga to'liq kirishib ketishlari uchun ularga keng ko'lamdagi raqobatbardosh bilimlarni, kasb-hunar ko'nikmalarini berish zarur bo'ladi. Yoshlar egallashlari lozim bo'lgan bilimlar hajmi har o'n yilda ikki martaga ortib bormoqda. Ijtimoiy, ma'naviy ishlab chiqarish va ilmiy-texnik tajribani kelgusi avlodga o'zatish jarayoni shu darajaga borganki, u har bir yoshni hayotga to'la iqtisodiy tayyorlash uchun kamida 12-15 yil o'qishini taqazo qiladi. Ba'zida bu muddat kamlik qilib, u 18-20 yilgacha o'zayishi mumkin (o'rta maktab + kollej (litsey) + oliy o'quv yurti + aspirantura).

Ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonlarining kechishi yoshlarda ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar, texnik yetukligining kechikib ketishiga olib kelmoqda.

Masalaning ikkinchi tomoni, yoshlarni ijtimoiy yetilishi bosqichlari va fazalarida obyektiv qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va ularni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ishlarni amalga oshirishda bu hayotiy haqiqatni doimo nazarda tutish lozimligidir.

Quyida shunday qarama-qarshiliklarning biri haqida to'xtalib o'tamiz. Buning uchun bundan 70-100 yillar oldingi davrdagi vaziyatlarni bugungi kunlarimiz bilan solishtirib ko'ramiz. U vaqtlarda mamlakatimiz aholisining 80-85%ini qishloq aholisi tashkil qilgan va butun aholining deyarli shuncha qismi dehqonchilik, chorvachilik, kosiblik va boshqa hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lgan. U vaqtlarda dehqon, chorvador, kosib-hunarmand yigit 16-17 yoshida jinsiy balog'atga yetgan va bu vaqtga kelib u unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik yoki chorvachilik malakalarining deyarli barchasini egallab ulgurgan va bu sohada mustaqil faoliyat olib borishga tayyor bo'lgan. Agar u 18-22 yoshida uylansa, oila qursa, unda uning jinsiy balog'atga yetishi, mehnatga tayyorligi va oilaviy hayotni boshlash omillari o'rtasida unchalik katta farq bo'lmagan.

Bugungi kunlarimizda esa biz mutlaqo boshqacha vaziyatni ko'zatamiz. Akselerasiya jarayoni va boshqa omillar tufayli bolalarda jinsiy balog'atga yetish, ularning bundan 70-100 yil oldingi tengdoshlariga qaraganda 2 yil erta ro'y bermoqda. Shu bilan bir vaqtda maxsus ta'lim olish, kasb-hunar egallash va

iqtisodiy mustaqillikka erishish kamida 22-25 yoshga va undan keyinga surilib ketyapti.

Yoshlarning jinsiy balog'atga yetishishi va ularning to'la iqtisodiy mustaqillikka yerishish vaqti o'rtasida kamida 5 yildan 10 yilgacha o'zlash yuzaga kelib qolmoqda. Bu holat, oldingi avlodlarda ko'zatlilmagan bir qator murakkabliklarni va ularga bog'liq ravishda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Keltirib o'tilgan ushbu nikoholdi omillari bilan bir qatorda nikoh mustahkamligida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omillardan yana biri – oilaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nikoh qurish motivlari va ularning o'ziga xos xususiyatlaridir. Quyidagi mulohazalar ana shu xususda boradi.

Nikoh oldi omillaridan yana biri – shu nikoh qurilishiga asos bo'lgan nikoh motivlaridir. «Motiv» iborasi psixologiyada ma'lum bir xulq, faoliyatning yuzaga kelishiga asos bo'lgan kuch, turtki, manba, asosni bildiradi. Xo'sh, oilalar qanday motivlar tufayli yuzaga kelishi mumkin? Psixologik adabiyotlarda bir necha o'nlab nikoh motivlari farqlanadi. Lekin ular umumlashtirgan holda uchta klassifikasiyaga farqlanadi. Bular: sevgi tufayli oila qurish, ya'ni yoshlar oila qurishdan avval bir-birlarini sevib, ma'lum bir muddat sevib-sevilib yurganlaridan so'ng shu o'zaro sevgining maxsuli sifatida bir-birlarining visoliga to'y qilib, oila qurib yetishadilar.

Motivlarning ikkinchi klassifikasiyasi moddiy yoki o'zga manfaatdorlik tufayli oila qurish. Bunda yoshlar oila qurish ekanlar nimanidir hisobga olgan holda, ma'lum bir maqsadni ko'zlab oila qurishlari mumkin, masalan, boylikni, mansabni, moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko'zlagan holda: «Agar shu yigitga turmushga chiqsam, boy-badavlat yashayman» yoki «Shu qizga uylansam, uning ota-onasi yordamida ma'lum bir mansab, mavqiyega erishaman», - degan fikrlar asosida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan qutulish, «yolg'izlikdan qutulish» va boshqalar. Shu kabi hisobga olinadigan narsalarni ko'plab sanab o'tish mumkin.

Nikoh motivlari klassifikasiyasidan yana biri — stereotip bo'yicha oila qurish deb ataladi. Bu toifa yoshlarda oldingi motivlarning ikkalasi ham ko'zatlilmasligi mumkin. Ular oila qurish ekanlar, stereotiplarga qaraydilar. Bunday

yoshlardan nima uchun oila qurganliklari so'ralsa, odatda: «Hamma tengdoshlarim uylanayotgandi, men ham uylandim!» yoki «Hamma dugonalarim turmushga chiqishayotgandi, men ham turmushga chiqdim!» qabilida javob beradilar.

Xo'sh, shu sanab o'tilgan uchala motiv: sevgi, moddiy yoki o'zga manfaatdorlik tufayli, stereotip bo'yicha qurilgan oilalarning qay biri mustahkamroq bo'ladi, ya'ni qaysi motiv nikoh oila mustahkamligini kuchliroq ta'minlaydi?

Albatta, bu savolga yoshlarning aksariyati, birinchi motivni, ya'ni sevgi motivini tanlab javob berishadi. Chunki ular sevgi tufayli oila qurish nikoh mustahkamligini ta'minlovchi yeng ishonchli, mustahkam poydevor deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham, sevgining oila mustahkamligidagi o'rni beqiyosdir. Haqiqatan ham, sevgi – bu o'ta qudratli kuchdir. U tufayli inson nimalarga qodir emas?! Insoniyat o'z taraqqiyotida erishgan eng yuksak cho'qqilar ham sevgi tufaylidir. Z. Freyd ta'kidlaganidek: «Sevgi – bu insoniyatni hayvonot olamidan sug'urib olgan kuchdir!». Inson yaratgan buyuk mo'jizalarning barchasi sevgi tufaylidir.

Bu aytilganlardan ko'rinib turibdiki sevgi tufayli oila qurish baxtli va mustahkam nikohning asosini ta'minlaydi.

Albatta, sevishib turmush qurgan juftlarning aksariyati eng baxtli oilaviy hayot kechiradilar. Lekin statistik ma'lumotlarga qaraganda, oilalar ajralishining ko'pchilik qismi ham xuddi shu sevishib oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Xo'sh, nega endi sevishib oila qurgan juftlar oilaviy hayotlarida hamma vaqt ham baxtli bo'lavermaydilar? Nega kechagina bir-birlarini sevib, bir-birlarisiz yashay olmasligiga to'la amin bo'lgan yoshlar bugun nikohlarini bekor qilish haqida sudga ariza berayaptilar? Ularning sevgisiga nima bo'ldi? Sevgi – o'zi nima? U bor narsami yoki yo'qmi? Bu o'rinda haqli ravishda «Sevgi oilaviy hayotning mustahkam bo'lishiga yordam beradimi yoki xalaqit qiladimi?», degan savol tug'iladi.

Bu kabi savollar azal-azaldan yoshlarni, umuman insoniyatni qiziqtirib kelgan savollardir. Bu haqda o'tmish mutafakkirlarimiz, olimu shoir,

yozuvchilarimizning asarlaridan, xalqimizning dono ma'naviy me'roslarida ba'zan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ko'plab misollarni ko'rishimiz mumkin.

Sevgi, agarda u haqiqiy bo'lsa, sevishganlar bir-birlarini hurmat qilib, tushunib, bir-birlarini e'zozlab, avaylab, kerak bo'lsa, biri ikkinchisining baxti, shodligi, quvonchi, manfaati uchun o'z manfaatidan voz kechib, o'ta nozik bo'lgan tuyg'u sevgini har kuni, har doim parvarish qilib yashasalar, unda sevgi ularning munosabatlarini yanada yaqinlashishiga, ularning oilaviy hayotining mustahkamlanishiga va birgalikdagi hayotlarida eng oliy zavq-shavqlarni his qilishlariga asos bo'lishi mumkin. Bu esa albatta. yoshlardan sabr-toqat, chidam, o'z sevgisini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirish uchun tinimsiz izlanish, mehnat qilish, «jafu chekish»ni talab qiladi. Shundagina sevgi o'zining lazzatli mevalarini berishi, o'zining kuch-qudratini ko'rsatishi mumkin. Albatta, har bir yigit-qiz o'zaro oila rishtalarini bog'lar ekan, ular o'z hayotlaridagi bu muhim voqyeaga umid, orzu bilan yondashuvi tabiiy.

Agar sevishganlar oila qurganlaridan keyin «murod-maqсадimga erishdim» deb sevgisini himoya qilishni, uni parvarish qilishni unutsa, uning uchun kurashmasa, qarovsiz qolgan har bir nozik nihol nobud bo'lganidek, eng nozik tuyg'u bo'lgan sevgi ham nobud bo'ladi. Shundan so'ng sevgi nomi bilan qilingan orzu-niyatlar sarobga aylanadi, yoshlarning oila, nikoh, sevgi fonida shakllangan tasavvurlari «noto'g'ri» bo'lib chiqadi. Oqibatda oilaviy hayotdan kutgan narsalari qolib ketib, mutlaqo kutmagan narsalariga duch kelishlari ko'zatiladi. Bunday holatda sevgi yoshlarning baxtiga, ularning oilaviy hayoti mustahkamligiga xalaqit berishi mumkin.

Navbatdagi motiv moddiy yoki o'zga manfaat tufayli oila qurishdir. Bu motivning oila mustahkamligiga ta'siri uning keyinchalik qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Oila qurishdan oldin yoshlarning hisobga olgan, ko'zda tutgan narsalarining hammasi ro'yobga chiqaversa, bu motiv ma'lum darajada nikoh mustahkamligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Afsuski, oilaviy hayotda hamma narsa ham yoshlar kutganidek bo'lavermaydi. Bu o'rinda L.N.Tolstoyning: «Badiiy asarlarda, romanlarda, kinolarda syujet, voqyealar

rivojlanib-rivojlanib borib, oxirida hammasi to'y bilan, yaxshilik bilan tugaydi. Hayotda esa aksincha, hamma narsa to'ydan keyin boshlanadi», - degan fikrini ta'kidlash maqsadga muvofiq.

Shuning uchun ham oilaviy hayotda kutilgan hisobga olingan narsalarga hamma vaqt ham erishib bo'lavermaydi. Nimanidir hisobga olib oila qurgan yoshlarning oilaviy hayotda ana shu hisobga olganlari amalga oshmay qolgundek bo'lsa, unda ularning oilaviy hayoti g'urbatga, turgan-bitgani azobga, nizo janjalga aylanadi. Ular uchun bunday oilada yashagandan ko'ra yashamagani afzal ko'rinadi. Bu ham oxir-oqibat oilalarning inqiroziga va «hisob» poydevori ustiga qurilgan imoratning qulashiga olib keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yuridik jihatdan eng mustahkam, turg'un oilalar stereotip bo'yicha oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Bunday oilalarda ajrashishlar miqdori oldingi ikki motiv asosida qurilgan oilalarga qaraganda juda kam ko'rsatkichni tashkil qiladi. Chunki ular «hamma qatori» oila qurishgan. Qarashsaki, «hamma binoyidek yashayapti» - bular ham yashayverishadi. Bu motiv asosida qurilgan oiladagi er-xotinlar o'ta baxtli ham, o'ta baxtsiz ham bo'lmaydilar. Lekin birgalikdagi hayot tufayli er-xotin o'rtasida bir-birlariga moslashish, bir-birini tushunish, bir-biriga nisbatan mehr-oqibat yuzaga kelib, ular rivojlanib yuqorida aytganimizdek, sevgi-muhabbat darajasiga o'sib yetishi ham mumkin. Bunday holatlar, shubhasiz, bu toifa oilalarni nafaqat rasmiy, yuridik jihatdan, balki emosional, psixologik jihatdan ham turg'un bo'lishini ta'minlashi mumkin.

## **2.2 Yoshlarga juftlilik ma'suliyati va jinsiy tarbiya xususida tavsiyalar**

Taniqli shoira va ma'naviyat targibotchisi Tursunoy Sodikova "O'g'lim qizimsengaaytaman" esselarida o'g'limga aytganlarim bobida juftlik mas'uliyati haqida quyidagilarni bayon qiladi:

### **Kimning gapi o'tadi?**

Eru ayolga nisbatan el orasida "ikki yorti-bir butun", "uzukka ko'z solganday", "yulduzi yulduzigiga to'g'ri" degan iboralar ishlatiladi. Bu gaplar bari

nisbiy. Aslida, erkak yoki ayol munosabat va manfiy voqelikdir. Ular mijozlaridan boshlab didlarigacha, ruhiy dunyolaridan tortib ovozlarigacha bir-biriga mutlaqo nomutonosiqlar va hamisha orasidan o't chiqib turadi! Er ham, ayol ham shu qarama-qarshiliklar ichra umrgo'zaronlik qiladi, aqllilar juftidan chatnayotgan ztda joni kuyib ketmasligi va o'zi ham yonidagi hamrohini yaralab qo'ymasligi uchun, qilning ustida yurganday yashab boradilar. Bular uy tutishda tadbirkorlardir. Oila do'kon emas, istirohat bog'i emaski, zerikib qolsangqaytib chiqavergani! O'g'lon bolam, sen bu holatdan hayratlanma, aksincha, unga tayyor tur.

Tuy niyat qilgan ota-ona, odatda "o'g'limizning boshini ikkita qilib qo'ysak" degan gapni ishlatadi. E'tibor berdingmi, juftlik bir tanu, bir jon bo'lmoqlikdir. Ammo uning boshi ikkita! Birlikka aylangan bu qarama-qarshilikning oti endi ro'zg'or! Ro'zg'orning hayot-mamoti shu ikkala boshga bog'liq.

"Oilada erning gapi o'tishi kerakmi yoki ayolning gapi?" degan bahs mantiqsizlikdir! Ro'zg'or kimning qaysi gapi bilan rivoj topsa, o'shanga amal qilinadi.

### ***Har inson – bir mamlakat***

O'g'lonim, umr yo'ldoshlarni xech qachon "juft atirgul", "qo'sh bulbul" va yo "ikki yuldo'z" demaydilar, "qo'sh xo'kiz" deydilar! va bu eng haq ta'rif!

Qo'sh xo'kizdan yonma-yon, zo'riqibmehnat qilsanggina ro'zg'or degan zil yuk joyidan jiladi. Eru ayol bir tomonga qayishsagina, umumiy til topa olsagina bitta kuchga aylanadi. Oilada til birligi, kayfiyat birligi suvdir, havodir! Ikki yaxshi birlashgan taqdirda ham, juftiga moslashishuchun o'zini, albatta, o'zgartirishi kerak! Shunday deyish mumkinki, hayotda hech kim oila ostonasiga ro'zg'or uchun to'la-to'kis tayyor yuo'lib sir asrorini ichiga kirsanggina bilib o'rganasan. Har bir oila, har bir inson- bir mamlakat, o'z iqlimi, o'ziga xos yashash qonunlari bor va u bilan hisoblashmoq va o'rni kelsa, sabru qanoat bilan o'zingga ko'ndirmoq kerak bo'ladi.

O'g'lon bolam, shundan xulosa qilki, sening ko'nglingga, oilangga yo'z foiz to'g'ri keladigan juft xech qachon topilmaydi, didingga ellik foiz mos kelsa bo'ldi,

faqat asli toza, fahm-farosatli, ziyrak bo'lsa bo'ldi, teng yarim fe'lini o'zingga moslab o'zing yasab olasan.

***Inson alpinstga o'xshaydi.***

Insonning bir mo'rtligi bor: muddaosiga yetguncha joniqib ketadi, yetgan zaxoti xotirjam tortib, o'rtasida o'zaro intilish bo'lmasa, yashashning qizig'i qolmaydi. Juft bo'lish degani bir-biriga ko'nglidagi borini shag'al mashinaday to'kib solish emas. O'g'lonim, qulog'ingda tut, ayolingni yoqtirishingni hech qachon o'ziga aytma! Shu masalada bir umr o'qilmagan kitob bo'l. O'andagina u atrofingda aylanaveradi, juftimga yoqamanmi, yo'qmi degan savol uni bezovta qilaveradi va faqat senga yoqish uchun afzallashishga tushadi, qarabsanki, hayoting go'zallashadi...

Erkak uchun ham, ayol uchun ham tuyg'usini sir tutgan juft maftunkorroqdir.

***Rashk.***

Endi so'z RASHK haqida ! umr yo'ldoshing –muqaddas nikoxdan topgan halolu poking! To oxirgi yo'linggacha senga yelkadosh bo'ladigan hamrohing shu. Hyech kimga aytilmaydigan gaplaringni aytadigan mahraming shu. Duru gavhar farzandlar beradigan xazinai yagonang shu ayoling!

Avvalgi kitoblarimda ham rashk haqida odamzodning shu boradagi zaifligiga afsuslar chekib yozganman!

Erningdir, ayolingdir zoti suyuq-quyuqligi, ma'ni dunyosining kengu torligi rashk masalasida ochilib qoladi. Dunyoda eng kir , jirkanch nafs shahvoniy nafsdur!

Ey, ulg'on! Juftni qizg'onishni ham sen muhabbat deb o'qtirma! Bu-da nafs! To'g'ri, rashk –yaxshi ko'rishdan tug'iladigan tuyg'u. Ammo u tilga chiqmay, ko'ngillarning tubida simillab og'riq berib turadigan shirin bir tuyg'u. Ammo u tilga chiqmay, ko'ngillarning tubida simillab og'riq berib turadigan shirin bir tuyg'u. Qulog'ingda qolsin, sha'riy er xotinlikning qoidasi shu-umrdoshday bebaho kishingni rashk qilib, badxulqlarning ro'yxatiga yozish uchun guvoh kerak! Ko'zlar ko'rib, qo'llar tasdiqlangan hujjat kerak, isbot kerak! Ammo bugun senu

men ko'rib turgan rashklarning to'qson foizi –GUMON! Qur'oni karimda gumon qilguvchilarga eng og'ir jazo bitilgandir! Qanday qilib, oppoq nikohingga o'rab , yenglarining ichiga yashirib yurgan gavharingni gumon bilan ming ifloslik ichra tasavvur qilasan?! O'z halolingni, qanday qilib, xayolan bo'lsa-da, haromlarga qo'shib sanaysan! Bu ayyolingga xiyonating-ku axir?! Hoxlagan paytida aynib ketish mumkin deb hisoblagan kishing bilan bir uyda qanday yashaysan, bola-chaqa orttirasan?! Xalqda “o'g'ri hammani o'ziga o'rtoq, g'ar hammani g'ardek sanaydi” degan gap bor. O'zi suyuq yoki suyuqlikka moyilligi boru, qulay sharoit bo'lmagani uchun hozircha aynimay turganodamlar juftini asossiz tarzda rashk qilaveradi. Sen o'zingni sharmanda qilma, bolajon!

Ro'zg'ordagi eng katta baxt-er-xotinning bir-biriga ishonchidir!

### ***Billur go'sha***

Ro'zg'or bamisli billur go'sha. Uni ehtiyotlab, yaraqlatib, jaranglatib, ko'zingni, o'zingni yayratib yashaydigan ham-sen! Xomlik qilib, chil-chil sindirib, siniqlarida umrbod tovonlaringni qonatib yuradigan ham-sen!

O'g'lonim, ayoling yoningdagi doimiy xoloskoring, uyingning ustuni, shirindan shirin farzandlar baxt qushidir! Unga aytiladigan birinchi nojuya gapdan tilingni tiy! Qo'lingning birinchi yugurishini to'xtatib qol! Xatar shuki, bir marta so'kkan til so'kaveradi, bundan esa oilang befarishta, bolalaring beibo bo'ladi...

### ***Lafzdan qaytish –yigitning o'limi***

Muqaddas nikoh o'qilayotganda “juftimni bemoru sog' paytida boqaman, xavfu xatardan qo'riqlayman, farzandlarimga rahnomalik qilaman” deya Ollohga oriyati sinmasin! Yigit boridan ayri tushsa tushsin, lekin lafzidan chekinmasin, o'g'il bolani mard qilib turadigan uning ichgan qasamidir to'rt muchchang sog' turib, ayolingning qo'liga mo'ltirama, tuproqqa cho'moliday qorishsang qorish, ammo ahli ayolingni o'zing boq, ayolning topgpniga qozon qaynatish sen uchun uyat bo'lsin!

### ***Yigit ahli ayoliga ko'rg'ondir***

Bir tanishim qiz o'zatdi. Kuyovning kasbu kori, ko'rinishlari binoyiday. Yigit kelinni bir marta ham chertmadi, haqorat qilmadi, ammo ikki yil o'tar

o'tmas, qizlarini ajratib oldilar. Sababi, uch aka-uka qachon qaramang, ishdan kelgach, suhbatlashib yo televizor ko'rib o'tirishaverar, ikki kelin va bo'yiga yetgan singillari mahallaning narigi boshidan qo'sh paqirlab suv tashir ekan va yana bir sabab: elektr haqini vaqtida borib to'lamagani uchun kuyov bolaning kelinchakni qattiq koyiganini eshitib qolibdilar. Bori aybnoma shu!

O'g'lonim, "Shuginaga shunchami?" deyishing mumkin. Muqaddas nikohni bo'zib, balki qizning ota-onasi xato qilganadir! Ammo shu kuyovning o'rniga o'zingni qo'yib ko'r: o'zbek mahallalari ma'lum, yoshu qari erkaklar hali u, hali bu darvozaning tagida gapni maydalab o'tirishni yaxshi ko'radilar. Ularning pastu baland fe'lligi bor, shularning nazari oldidan parda ostidagi ma'sumalaringning hadeganda u yoqdan bu yoqqa o'taverishlari durustmi? Uning stiga sen tirik bo'lsang-u, uyda ayg'irday ayg'irday ag'anab yotsan-u, aling tamoshabin erkaklar yonidan ikki paqir yuk bilan qiyshayib –mayshayib o'taversa! Oriyatning shuni ko'tarsa! Uning mushaklari o'zilay deb tashib kelgan suvini uyalmay, xotirjam ichaversang!?

Shu kuyovning onasi ellik yoshdan sal o'tiboq vafot etdi. Jigari irib bo'lgan ekan. Onasi ellik yoshdan sal o'tibroq vafot etdi. Jigari irib bo'lgan ekan.. Noshud erkagi esa, ayolidan keyin hech yo'q tirik yurishni ham uddalamadi, ko'p o'tmay qazo qildi, 19, 17, 10 yoshli bolalar uylanmay joylanmay sargardon qolib ketdilar....

### ***Bizning milliy oriyat.***

Ota-buvalarimizning ma'naviyati qanday bo'lganini eshit: erkak kishi ko'chadan o'tib borarkan, biror darvoza oldida paqir ko'rdimi, darhol bu ko'chaning anhorin topib, suv keltirib qo'yib o'tar ekan. Eshik oldidagi bo'sh paqir bu xonadonda dastyor yo'q degan ishorani berarkan. Tanishmi, notanishmi, ayol kishiga og'ir yuk ko'tartirish millatning erkagi uchun oriyat bo'lgan.

O'g'lonim, ayolingni bozor, loy ishlaridan, molxona tozalash, suv keltirish, kunning tig'i, sovuqning zahridan asra! Sen uni ayashga qasam ichgansan! Va bu qasamning ijrosi, avvalo, o'zingga kerak-ayolingni ayasang, avloding butun bo'ladi!

### ***Yana shu haqda***

Gap yana oriyat haqida. Bir shaharning xokimi koyinib: “Bir kuni o’nga yaqin ayol shikoyat bilan kelibdi. Biri gaz, biri suv va yana boshqa-boshqa masalalarda. Ovozlarining jarangi xonani ko’tarib yuboray deydi. Ko’zatib turarkanman, menga ularning jangu jadali emas, boshqa narsa ta’sir qildi-bularning erkaklari qani deyman! Surishtirsam, hammasi erlik ekan! “Opajonlar, ertaga erlaringiz kelsin, o’shalar bilan gaplashay” deb ko’zatib yubordim. Ertasiga azamatday-azamatday bo’lishib erlari kelishdi. Xonani ichidan berkittim-da... aytananimni erkakchasiga aytib oldim”, -degan edi.

“Sen mendan ko’ra gapga chechanroqsan,”- deb, nomahramlarning ho’zuriga ayolini ish bitirishga yuborayotgan erkakning hamiyati necha pullik? “Men chaqqonroqman, siz uyda bolalarga qarab turing, falon yurtdan mol olib kelay” desa, ayolini o’g’riyu to’g’ri, yomonu yaxshiga qo’shib yuborgan, yo’lda-cho’lda xalta-xalta yukni ortmoqlab, urinib-surinib yurgan jufti uchun vijdoni qiynalmagan, oriyati yig’lamagan erkak qanaqa erkak bo’ldi?!

O’g’lonim, bular shoir aytgani kabi “tiriklikda o’lik” kishilardir! Bu yo’l senga OR bo’lsin! Hunaring bo’lsa, mehnatdan qochmasang, muomalani bilsang, er emas, sher bo’lasan, boshing hamisha baland, xonadoning obod bo’ladi, ishon, bolajon!

### ***Ayolning joni bitta.***

Ayolingning jismi-joni-farzandlarning unib chiqadigan zamin. Charchagan tomir, charchagan jon, charchagan asabdan hech qachon butun mag’izli bola unmaydi! “Ayol kishining joni qirqta” degan naqlni sen yomon ko’r, o’g’lonim. Ayolning joni bitta, u shu bir jonini qirqqa bo’lib yashaydi. Uning yonida yonbosari qancha kam bo’lsa, juftni qancha shudsiz yoki e’tiborsiz chiqsa, joni o’shancha ko’p bo’lakka bo’linadi. Xonadonda kuylab, sozanda soz chertib yayraydi. Ayol esa uy bekalikni, ayollikni, onalikni joyiga qo’ysa, yetmish ikki tomiri yoziladi. Uyda, ko’chada o’zi-yu erkagining o’rniga yugurayotgan ayol zo’riqayotgan, ayolchasiga yashashga oshina olmay, siqilayotgan jondir. Endi

uning tiliga zo'r keladi-injiq, zahar bo'lib qoladi. Qarabsanki bundan bola-chaqang ziyon ko'radi, o'zing asabiylashasan, oilada muvozanat bo'ziladi!

Ayolning joni mingta bo'lishi ham mumkin va mingga bo'linsa ham, ayol o'lmayyurishi mumkin. "Ana u, o'lmay yuribdi-yu"deb g'aflatda qolma! Endi sening tinching o'ladi, oilangning sifati o'ladi, shakling boru mazmuning o'ladi... ayolingni asra, o'g'lonim!

### ***Senga bir xiyla o'rgatay***

Ayol nima desa, darrov "xo'p" deyaveradigan erkak ayollarbahosida eng beobro' erkakdir! Ayolingning taklifi to'g'ri bo'lsa ham, darrov ko'nma, o'ylab ko'rishingni ayt. Kerakdan nokerakni ajrat, faqat juda zaruriga kun. Bu, birinchidan, ayolingni gapni aytishdan oldin mulohaza qilishga o'rgatadi, qolaversa, seni ko'ndirish uchun atrofingda girdikapalak bo'ladi yana qolaversa, "ha" javobingni intiqib kutgan ayolga har ko'rishing bir bayramdir!

### ***Yana bir usul!***

Ayolingning yuklik bo'lishi, ko'z yorishi yoki issiq jon-bemor bo'lishi bor. Bunday paytlarda boshqa dastyor bo'lmasa, yana qaytarib aytaman, sendan boshqa hech kim qolmasa, uning qiyin ishlariga yordam berishing – burching! Unga aynan shu kunlarida asqot. Bolangga parvona bo'lgan kabi avayla!

Ammo uyingda o'rni kelsa-kelmasa, ayollar bajaradigan ishlarga aralashib ketaverma. Chegarangni bil. Ayniqsa, ayolingning senga ish buyurishiga aslo, aslo yo'l qo'yma. Erga farmonbardorlik bizning odobda yo'q! Ayolidan cho'chib, yelkasini qisib turadigan erkak bizdan emasdir!

### ***Eng baxtsiz ayol***

Jufti ko'rimsiz ayol emas, yaxshi yedirib yaxshi kiydirolmaydigan erkakka yo'liqqan ayol ham baxtsiz emas. Hatto farzandsizlik dog'ini tortayotgan ayol ham unchalik betole emas. Ammo, o'g'lim, quloqqinangda shu so'zim jaranglab tursinki, eri ichkilikka ayol dunyoda eng baxtsiz, eng g'amgin, eng bechora ayoldir!

### ***Bong ur!***

O'g'lonim, ayolingning sarishta yoki sarishta emasligi oilang taqdirini yo ravnaqqa va yo inqirozga olib boradi. Chunki yaxshi tozalanmagan idish, chala yuvilgan qo'l bilan tayyorlangan taom, chala supirilgan uyda yotib turish kishining luqmasini harom qiladi. Didini niyatlarini chirik bosadi. Harom luqma aralashgan joyda falokat bo'ladi, nasog' bolalar tug'iladi, ishlar orqaga ketadi.

Aytib qo'yay, ayoling chiroyi uning tutimida! Ivirsiiq ayol dunyoda eng xunuk ayoldir! Nopokizalik kamchilik emas, u qondan o'tadigan yomon kasal, surunkali kasal! Uni qattiq turib davolamasang, bu dard senga ham yuqadi, kirlik ichra yashashga ko'nikib ketasan! Juftingning shu fe'lini sezdingmi, to'ydan keyinroq bong ur! Ya'ni, masalani shunday qo'yki, agar u saramjomlikni odat qilmasa, turmishidan ajrab qolishini xis qilsin. Ayolingni ochiq muhokamaga qo'yma, onasiga kamchiligini dasturxon qilma, qaynona kelinning, quda-andaning orasi bo'zilmasin. Jufti seniki, o'zing qayg'ur. Yostiqdoshlikning savobi shunda.

Talabchanliging (Erkak talabchanlikni uddalashi shart!) uning boshida qilichday tursin, yaxshigap, nasihatlar bilan bundaylar to'zalmaydi. Ular faqat kimdandir qattiq qo'rqsalargina va nazorat doimiy bo'lsagina risolaga tushadilar! Ayoling sen yo'q paytda ham, nazoratchi qolmasa-da, oq yig'inib, oq taranadigan bo'lguncha vajohitingdan tushma.

Bunday fe'li ayolga uchragan ayrim erkaklar armonlarini ko'chada ushatmoqchi bo'ladilar. Ular "juftlik" degani birinchi navbatda bu ro'zg'orchilikning qarzi ekanligini bilmaganlardir. Bilsalar-da, bu ishga ixlos bilan kirishmaydilar yoki ular juft tutish borasida xudo urgan shudsiz kishilardir!

Yoqimsiz ayoldan qochib, pokizasini topib olish eng oson ish! Ammo o'zing qochganing bilan bolalaring o'sha kir etakda qolyapti-ku! Bolalaringni falokat o'rab boryapti-ku! Qizing onasini naq o'zi bo'lib, o'g'ling harom-halolning farqini bilolmay qolyapti-ku! Ularning g'amini kim yeydi?!

O'g'lim, onangga aytgin, avval onasini va uning tutumini obdon ko'rib, keyingina qizini tanlasin. Hamma balo ayoling chiqqan inda!

### ***Tilni tiyingiz!***

Ayoling senga qarab shang'illagan zahoti uyingdan farishta ketdi deyaver. Agar bu hol takrorlanaversa va bunga sen ko'niksang, endi sen er kishi emas, bamisli mushukka aylanding — xohlasalar boshingni silaydilar, yo'qsa, tepib o'ynaydilar. O'glonim, bo'nday erkakning boridan yo'g'i ma'qo'!

Ayoling nafaqat senga, sening oldingda bolangga ham baqirib gapirmasin! Hurmatingni saqlasa, yoningda ovoz ko'tarmaydi. Sharqona taomil shunday.

Yana shuni bilki, ayoldan odob so'rashdan avval, o'zingni imtihon qil, non yeydigan, ilm o'qiydigan og'zingga harom so'zlarni solma. Ba'zan uyidan odobli kelgan ayol beodob er tufayli, andishasizlikka ko'nikib qolishi mo'mkin. Yaxshi juft, yaxshi farzand xohlagan erkak avval o'zi ibratli bo'lib olsin!

### ***Zino***

Juftga xiyonat nikohga xiyonatdir. Buni harom qadam, shahvoniy nafs deyдилar! O'g'lonim, bu zino! Uni yigitchilikning o'tib ketadigan ishqibozligi deb bilma! Bir kuni tiyilaman va savob ishlarni ko'paytirib, aybimni yuvaman deb o'ylama! Inson tinmay o'zidan yaxshi-yomon nur taratib turadi, buning nomi sharofat va kasofat! Pok yursang, o'zing ham, ahli ayoling ham sharofatli, ya'ni tinchlikda, rohat-farog'atda bo'ladi. Aksi bo'lsa, bilginki, har kuni sen bilan uyingga balo kirib keladi. Joningga jazo kirib keladi! Hamma ish orqaga ketadi, qo'ling nimaga teginsa, o'shanga qayering uraveradi. Puling ko'paygani, molu davlating ziyodaligi bir pul! Bisyorliklar yayratmaydi, chunki uni xudo dilingga sig'dirmay qo'yadi. Hamisha ombir bilan yuragingni burab turadigan tashvishlar bir-bir kelaveradi.

Sen o'lib-tirilib, tavgaga yo'zlanishing, tiyilishing mumkin. Ammo allaqachon poyezd jilib ketgan bo'ladi: o'g'ling jinoyatga qo'lurgan, qizing gap-so'z bo'lib bo'lgan, tabobatning kuchi yetmaydigan dardllr badaningga joylashib ulgurgan bo'ladi!

Ko'zingni och, o'g'lon! Ayol qiyofasidagi chiroyli shayton xonadoningga shuncha ko'rgulik olib kelmoqda. Eng yomoni shuki, bu xonavayronlikni u sening qo'ling bilan sodir etadi!

### ***Rahbarmisan, rahbarday bo'l***

O'g'lonim, oila rahbari erkakdir. Bu unga Olooh buyurgan vazifa. Xonadonning issiq-sovug'i, ochin-to'qinligi, muhofazasi sening qo'lingda! O'ttizga kirmay o'tin bo'lgan ayollar, erkakshoda yoki tirikchilik orqasida dardmand bo'lib qolgan ayollar nomehribon, noshud va ro'zg'orboshilik burchini unutgan erlarga uchrab, shunday holga tushganlar.

To'rt faslning iqlimini oilaga erkak olib kiradi: yerdan nimayki yangi unib, bozorga chiqsa, darhol namunasidan uyingga keltir, ahli ayolingni bahramand Qil. Ayolingga ham ota, ham ona urnidasan, bu tomning tagida sendan boshqa homiysi yuq, doim unidir unga ilinib turgin. Rangi sarg'aysa, hushyor tur, kerakli choralarni ixlos bilan qidir. Salomatlik uchun zarur bo'lgan yemak-ichmaklarni hamisha rasta qil va ketini uzma. Ayoling so'ramasa ham yoki keltirsang, sevinishni bilmasa ham shunday qil! Kishi yaxshilikni avvalo Oloohning roziligi uchun qiladi, bandalik burchini a'lo bajarish ham yigitchilikdan!

O'g'lonim, ayollikning g'alati dunyosi bor: boshqalarning tuyaga ortgulik mukofotidan uning uchun umr yo'ldoshi sovg'a qilgan bitta taroq ming bora azizdir! Ayolki bor, yuraklarining tag-tagida juftidan sovg'a olishni orzulab yashaydi. Sen hech qachon boyman, kambag'alman dema, arzondir, qimmatdir, vaqti-vaqti bilan ayolingga yo yemak, yo kiymak shaklida tortiq keltirishni unutma! U kutmagan, so'ramagan narsalarni olib kelib sevintir. Bayramlarda, uning uchun muborak saylangan kunlarda shunday e'zoz ko'rsatki, ota-onasi tirilib kelganday bo'lsin! Sen bu ishlarni og'rinmay bajar, ayoling bunday muruvvatni senga kunda qiladi-ku, adolat yo'zasidan ham, hech yo'q ora-orada qarzni qaytarish kerak, o'g'lim!

### ***Qo'shningdan nasa so'ratma***

Ro'zg'orda rahbar ekanliging doim esingda tursin. Rahbar himoyachi, rahbar javobgar shaxsdir. Ayoling ovqat tayyorlaydigan, kir yuvadigan, dazmol qiladigan joylarda qulaylik yarat. Unga qo'sha-qo'sha kiyimlar olib bermasang

ham, dam olish uylariga olib borib yayratmasang ham mayli, ammo ro'zg'orga ketadigan buyumlarini to'kis qil, qo'shndan narsa so'rattirma!

Yaqinda bir erkakning gapini eshitib qoldim: "O'n olti yildirki, men ro'zg'orga gugurt, choy, sovun, to'z harid qilmayman", — dedi. Havasim keldi. O'g'lonim, xudo kaftingga baraka bersin va sen shu narsalarning hech yo'q bir yilligini gamlab qo'y, avvalo o'zingning joning tinadi.

G'ayratli va jonsarak bo'! Har faslga bir fasl ilgari tayyorlan. Qor yoqqanda ko'mir qidiradigan, sabzi-piyoz bitta ham qolmagandagina bozorga boradigan notavon bo'lma! Rejali, saranjom, g'ayratli erkak hech qachon rizqsiz qolmaydi, kambag'al bo'lmaydi.

### ***Ayolingni asra!***

Men shunday kunlarni orzu qilaman: biz yoshlarga oila ilmini fan sifatida o'rgataylik. Hatto ro'zg'or sirlarini o'qitmay turib, qizlarimizni o'zatishtga, o'g'illarimizni uylantirishga qurqaylik. Har kim bir umr yashaydigan o'z uyini obod qilishni bilishilozim.

Ammo hayotda oilasining kattaligidan, yordamchi yo'qligidan, qozon-tovoq, sigir-bo'zoqning ichida yosh turib qarib borayotgan ayollarni ko'rsam, ham ko'chaning ishi, ham uying ishiga ulgurolmay, ichidan siqilib, qurib borayotgan guldek oyimlarni uchratsam, erkaklarimizning beg'am, behafsalaligidan o'ksinaman, o'g'lim. Erlari, otalari, akalari e'tibor qilmayotgan bu ayollar ertaga millatning bolasini — millatning kelajagini tug'ib beradigan onalardir. O'g'lonim, qani, ayt-chi, sgu horg'inlik ichra ulardan qanday butun bola tug'ilsin?! Armonlarimni sen ol: xudo topish-tugishingga baraka bersinu, to'rt tanga oshinsang, hech yo'q haftada bir kelib, ayolingning og'ir ishlariga ko'maklashadigan yordamchi yolla! Uni tinkasi quriguncha urinishga qo'yma, joniga dam ber. Bu juftlikning yo'zi, juftlikning qarzidir!

### ***Senga yoqmagan ayolingniham asra!***

"Eru xotin bir-biriga do'stlik muhabbat nazari bilan qarasa, olloh ularga rahmat nazari bilan qarar. Agar er ayoling qo'lidan tutsa, gunohlari barmoqlari

orasidan tukilib ketar" deyiladi hadisi sharifda. O'g'lonim, bu muborak kalomning "agar er ayolining qo'lidan tutsa, gunohlari barmoqlari orasidan to'kilib ketar..." degan joyiga e'tibor ber! Ikki insonning qovushishi bu qismat! Peshonangga shu ayol yozildimi, tamom, yaxshi ko'rasanmi, yomon ko'rasanmi, rahnamolik qilishing shart! Chunki sen umr yo'ldoshsan, ollohning oldida qasam ichgansan. Qolaversa, u o'g'il-qizingning onasi, sulolangning umrbod bog'bonidir! Ikki umr muruvvat qilsang ham, ayolingdan qarzing tugamaydi. O'g'lonim, yaratganning ayolga e'tiborini, muruvvatini qara, o'ziga yoqqanu yoqmagan juftining qo'lidan tutib, mehr ko'rgazgan erkakka jannat va'da qilayotir. Ayolga muruvvat peshalikni senga ollohning o'zi buyurayotir, juftlik muqaddasdir, bolajon!

### **Kelin kuyov nazokati**

Kelin kuyov nazokati insondagi ruhi, tan va tafakkur mayllarining qo'shiluvida namoyon bo'ladi. Bu haqda "Lazzat unsino", "Lazzat-ul visol", "Lazzat-ul jimo", "Qovosul-ashyo" kabi risolalarda tabobat ilmi nuqtaiy nazaridan jinsiy tarbiyaning ba'zi nuqtalarini bayon qilgan. Biroq ko'pchilik yoshlarimiz jinsiy hayot haqidagi yetarli ta'savvurga ega bo'zlmaganligini hisobga olib ayrim qoidalarni bayon qilamiz.<sup>5</sup>

Qur'onning "Niso" (uchinchi oyat) surasida ta'kidlanishicha, Tangri taalo har bir jonzodni yaratar ekan, uni bir juftga muhtoj qildi.

Odamni barcha maxluqotlardan aziz va mukarram aylab, ko'p ishlarning sabablarini ularg bildirdi. So'ngra nikohga ruxsat etib. "Ayollardan o'zingizga yoqanlardan.... oling", deb buyurdi.

Yoshlar eru xotin bo'lamiz, deb ahd qilishadi. Buning ma'nosi shuki, ular endi bir qozondan osh yeb, bir yostiqqa bosh qo'yishadi, turmush zahmatlarini, sevinchlarini birga tortishadi. Endi bu dunyo safarida bir-biriga umr yo'ldosh bo'ladigan er-xotin tabiatlari bir-biriga muvofiq bo'lmasa, safarlari qanday davom etadiyu, qanday qilib bir jonu bir tan bo'ladilar. (Odobnoma Toshkent "o'qituvchi" 1991 yil).

Shuning uchun ham safarboshu umr yo'ldoshi bo'ladigan xotinning holini bir qadar lozim bo'ladi. Janobu Rasulu Akram va Nabiiy Muhtaram "uylaniglar, farzandli bo'linglar, men, albatta, bolalar tufayli qiyomat-kuni sizlardan xursand bo'laman, deganlar" (Visol lazzati T. 1991 yil 6-bet).

Oliyjanob xotin asl nasabliyu, aqlli, badani salomat, ishonchli kimsalar bo'zurida tarbiya olgan, onalar va xotinlar zimmasiga bo'lgan vazifadan xabardor, dunyoning oqi-qora kunlarini biladigan odam bo'lmog'i kerak. (Oila T. "Mehnat" 1991 y).

Bolalarning tarbiyaligi, itoatli bo'lishni orzu qilmagan odam bo'lmas kerak. Faqat buning uchun tarbiyaligi, itoatli ona tanlash shart. Tarbiyalig xotin aqlli erning ko'nglini o'ziga rom qiladi, ko'ngli xotiniga bog'langan er qayerda bo'lsa ham nomusizlik olamida yurmaydi. O'z qoshida hurmatli bo'lganxotinga xiyonat qilmoqlikni hech ko'ngliga keltirmaydi. Xotinning go'zal e'tiqodi eri qoshida mahkam bo'ladi, aqilli va hamiyatli er xotinga butun dunyosini bag'ishlaydi, tarbiyalaydi xotinga er bo'lgan kimsa hech qachon o'z iffatini nobud etmasligi kerak. Olinadigan xotinning tarbiyasiyu xulqini, muloyimu jozibaliligini bilmoq lozim.

Oilaviy aloqa inson qalbida katta o'rin egallaydi. Oilaviy aloqa kishilarning hamkorligi bo'lib qolmay, ularning qon-qarindoshligi hamdir. To'g'ri tarbiyalangan har bir insonda oilasiga nisbatan muhabbat, mehru-shafqat va g'amxo'rlik hissi kuchli bo'ladi. Bu muqaddas burchga yengil qarash beparvolik qilish, kishining tabiatini bo'zuq, bilimsizligiga dalildir.

Oila nafaqat kuyov va kelinning, balki ikki oila a'zolarining ham o'zaro aloqasi ekanligini unutmasliimiz kerak.

Kuyov va kelinning bir birlarini ko'rib yoqtirishlari haqiqatga asoslangan, axloqan bezarar bo'lishi uchun quyidagilarga rioya qilmoq zarur:

1. Bo'lajak kelin kuyov bir birlari bilan odob doirasida ro'y rost gapshuvlari kerak.

2. Kelin tanlashda ota-onaning tavsiyasini ham hisobga olish lozim. Chunki ota-ona o'z farzandiga faqat yaxshilikni ravo ko'radi.

3. Kelin-kuyov bir-birlarini tanlashda bo'lajak jufti halolining xulqiga albatta ahamiyat berishi lozim.

Qiz yoki kuyov tanlashda ularning xulqiga ahamiyat berish haqida xadida quyidagilar bitilgan.

1. Bandaga berilgan narsalarning a'losi yaxshi xulqdir.

2. Dunyo vaqtincha faxrlanuvchi narsadir, undagi ne'matlarning eng yaxshisi esa yaxshi xotindir.

3. Xotin-qizlarga chiroyi uchun uylanmanglar. Chunki chiroyi o'tkinchi bo'lishi mumkin va ularga moldorligi uchun uylanmanglar, chunki mol ularni haddan oshirish mumkin.

Haqiqatdan ham shoir aytganidek:

Yo'z go'zal bo'lsa nafi bo'lmas hayosi bo'lmasa

Yo'z tabibdin foyda yo'q yaxshi davosi bo'lmasa

Oila o'g'il yo qizlik bo'lganidan keyin emas, balki o'g'il-qiz ko'rishga tayyorgarlik ko'rilyotgan, ya'niki, oila qurish vaqtidan boshlanadi.

Musulmonchilikda o'g'ilning yo qizning tashvishi ona tanlash vaqtidan boshlanadi. Yoki ota tanlash vaqtidan boshlanadi. Chunki otaning axloqi, otaning odobi, uning o'zini tutishi va insoniyligi, shuningdek onadagi fazilatlarining bolaga o'tishi bu –isbot bo'lgan haqiqat. Shuning uchun oila qurmoqchi bo'lgan har bir yigit-qizo'ziga umr yo'ldoshini tanlashda bo'lajak farzandlarining otasi yo onasining shaxsiy fazilatlariga katta e'tibor berishi kerak. O'zingiz o'ylab ko'ring, o'ylamay-netmay qandaydir bir kamchiliklari bo'lgan yo axloqi bo'zuk kishi bilan turmush qurgan inson o'zidan tug'ilgan farzandni tarbiyalashi qandash og'ir kechadi.

O'g'il –qiz tarbiyalaydigan odam o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Farzand tarbiyasi ayol homilaga kirgan paytdan boshlanadi. Homilaga kirgan ayolning ruhiy kechinmalari, unda kechadigan holatlar homilaga o'tishi isbotlangan. Shuning uchun homilador ayolga nisbatan muomala juda ehtiyotkorlik bilan bo'lishi, u avaylab, o'ylab amalga oshirilishi zarur.

Bola o'ng qo'li bilan chap qo'lini ajratadigan bo'lganda uning tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilishi kerak. Uning ko'nglini qoldirmaslik, qo'pollik qilmaslik, bolaligini e'tiborga olib, ruhlantirib tarbiyalash lozim. Demak, tarbiya va xotira bolada go'dakligidan shakllanadi.

Tabiatning jinsiy yaqinlikdan ko'zda tutgan maqsadi yangi hayotni dunyoga kelishini ta'minlashdir. Biroq jinsiy yaqinlik lazzat beradigan bo'lgani uchun odamlar ko'pgina vaqtlarda zurriyot paydo qilishni maqsad qilmasdan turib, jinsiy aloqa qilishadi. Bu to'g'ri emas. Unda bir necha hollar borki, bunga amal qilmoq kerak. Har kim xotini bilan ishrat qilayotgan vaqtda nargis guliga qarasa, olma hamda achchiq anorning suvidan iste'mol qilsa, tug'ilgan farzandining yo'zi chiroyli, ko'zlari esa jizibali bo'ladi. Rivoyat qilishlaricha, Vushgir ibn Kobus doim shu odatni qilardi. Undan vujudga kelgan farzand ko'p fanlarning sohibi bo'ldi va "Malik ul-ma'niy" ("Ma'nolar podshosi") degan nom oldi. Har kim xotini bilan qo'shilayotgan paytda hisru shahvat bilan uning uyat joyiga qarasa, ko'ziga nuqson yetadi, ko'pincha farzand ko'r bo'lib qoladi. Kimki kun chiqayotgan vaqtda, kun og'ayotgan yoki botayotgan paytda yaqinlik qilsa, tug'ilgan farzand jamiyatga zarar keltiruvchi bo'ladi.

Yosh kelin-kuyovlar o'rtasidagi jinsiy yaqinlik bir-biriga intizorlik bilan talpingan qalblarning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, bunda tana vujudlarigina emas, balki uy fikrlar, orzu-istaklar, niyat maqsadlar ham bir-biriga qo'shib, yaxlit bo'lib, ketadi.

Jinsiy aloqaning shirin va lazzatli o'tishi uchun er-xotinlarning butunlay yolg'iz bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Jinsiy yaqinlikning qanday sharoitda o'tayotgani muhim o'rin tutadi. Bunday qaraganda, arzimaydigan bo'lib ko'rinuvchi mayda-chuyda narsalar hoxish-istakni kuchaytirishi ham, susaytirishi ham mumkin. Umar Ibn Hofiz xikoya qiladi: Navjuvon ayyollar keksa bir xotindan so'radilar:-Erkak amal qilsa, ayollarning muhabbatini oshiradigan narsa nima. Javob berdi:- Jinsiy yaqinlikdan avval silab-siypash, qo'shilgandan so'ng muloyim muomala qilish.

Yana shuni aytish kerakki, jome (aloqa) dan keyin sovuq suv ichmasligi lozim. Chunki sovuq suv ichilsa, qaltiroq, badanning bo'shashishi, jigar zaifligi va sariq suv kasalliklari paydo bo'ladi.

Kimki bedarmonlik paytida yoki biror ish qilib, charchab turgan paytida xotiniga yaqinlik qilsa, u odamda yurak uynog'i (hafaqon kasali) yo'z beradi, kuchsiz tez-tez kasal bo'ladigan farzand tug'iladi. Jinsiy aloqaning normasi bormi? Bu savol kelin-kuyovlarni juda qiziqtiradi. Albatta har bir masala hammaning o'ziga xos tomonlariga qarab hal qilinadi.

To'ydan keyingi dastlabki oylarda jinsiy aloqa, odatda, tez-tez bo'lib turadi, keyinchalik esa bir muncha kamayib qoladi. Ba'zi eru xotinlar uchun har kuni aloqaqilib turishsh zarur bo'lsa, xaftasiga bir-ikki marta aloqa bilan cheklanadiganlar ham bor. Haftasiga ikki-uch marta aloqa qilib turishi mu'tadil holat deb hisoblash mumkin. Zero, "... ortiqcha jimo'ni kun qilsauning buyragi zaiflashadi, ko'z nuriga zarar qiladi, jinsiy lazzat olishga va ruhga ziyon yetkazadi" deydi. Shu sababli jinsiy suhbat uchun qaysi kun sa'd (baxtli) va qaysi kun nahs (baxtsiz) ekanligini bilmoq maqsadida "Visol lazzati" risolasida berilgan quyidagi jadval ilova qilinadi.

Ushbu jadval mutloq xulosa emas, albatta. Bu bir ota-bobolarimiz amal qilgan tavsiya. Buning qanchalik to'g'ri ekanini birgina Allohi taola biladi. Har holda mazkur jadvalda amal qilsa yaxshi bo'ladi.

**Donishmand va tabiblar tomonidan o'tkazilgan ko'p tajriba va sinovlardan so'ng Mujoma't (jinsiy aloqa) uchun to'zilgan Sa'd (baxtli) va Nahs (baxtsiz) kunlar**

**JADVALI**

Kunlar	Yaxshi va yomon	Nima bo'ladi	Farzand qanday bo'ladi	Sababi
Yakshanba	Nahs (yomon)	Tabi rub' bo'lur (to'rt kunda bir tutadigan isitma)	Chaqimchi, xiyonotkor, berahm, onai bezor bo'lur	Quyosh podshoh bo'lgan kun
Dushanba	Sa'd (yaxshi)	A'zolari sog'lom bo'lur	Sohibixusn va sohibi kamol bo'lur	Oy podshoh bo'lgan kun
Seshanba	Nahs (yomon)	Beli, buyragi zaif bo'lur	O'g'ri va qaroqchi bo'lur	Mirrih podshoh bo'lgan kun
Chorshanba	Nahs (yomon)	Bosh og'rig'i bo'lur	Hunasa bo'lur	Atorud podshoh bo'lgan kun
Payshanba	Sa'd (yaxshi)	A'zolari sog'lom bo'lur	Oqil va ulug' martabali bo'lur	Mushtariy podshoh bo'lgan kun
Juma	Sa'd (yaxshi)	A'zolari sog'lom bo'lur	Olim va narhizgar bo'lur	Zuxro podshoh bo'lgan kun
Shanba	Nahs (yomon)	Bemorlik paydo bo'lur	Fosiq va zolim bo'lur	Zahal podshoh bo'lgan kun

### **III. BOB. QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH MASALASI.**

#### **3.1 Oilada qizlarni mustaqil hayotga tayyorlasda oila va jamoatchilik hamkorligi.**

Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni qaror toptirish va ushbu hamkorlik asosida faoliyatni tashkil etish so'z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq Respublika xukumati tomonidan oilalar mustahkamligini ta'minlash, farovonligini oshirish, oila muhitida har jihatdan yetuk, komil insonni tarbiyalash masalalarining davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi bu borada qator ijobiy ishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Xususan, "Oila" ilmiy-amaliy Markazi, "Sog'lom avlod" nodavlat jamg'armasi tashkil etildi. Mazkur muassasalarda yo'lga qo'yilayotgan faoliyatning bosh maqsadi oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga nazariy va amaliy yordam ko'rsatishdan iboratdir. Jamoatchilik imkoniyatlari, shuningdek, nomlari yuqorida qayd etib o'tilgan muassasalarning faoliyat yo'nalishlari mazmuni bilan tanishib chiqish asosida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasidagi ijodiy hamkorlik samarali natijalarni beradi degan xulosaga keldik.

Xo'sh, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasida qaror toptirilgan hamkorlikning mazmuni nimalardan iborat bo'lishi lozim? Ushbu hamkorlikka tayanib faoliyat yuritish qanday natijalarni beradi?

Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida oila va jamoatchilik o'rtasida ijodiy hamkorlikni qaror toptirishdan ko'zlangan maqsad - qizlarga oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog'lom muhitni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari xaqida ma'lumotlar berish, ularda oilaviy munosabatlarni tashkil etish hamda oila xo'jaligini yuritish borasida muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni xosil qilish, bu yo'lda oilaga nazariy va amaliy jihatdan yordam ko'rsatish, oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bizning nazarimizda, qizlarni

mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi oila va jamoatchilik hamkorligini qo'yidagi yo'nalishlarda olib borish so'z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlaydi:

1. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish, ularda ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, iqtisodiy, xuquqiy, ekologik, estetik, gigiyenik hamda sog'liqni saqlash borasidagi nazariy bilimlarni oshirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi manbalar bilan ta'minlash, uslubiy yordam ko'rsatish.

2. Muayyan masalalarda mutaxassis maslaxati hamda amaliy yordami (masalan, xuquqshunos, psixolog, pedagog, iqtisodchi hamda tibbiyot xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan ko'mak)ni uyushtirish.

3. Ota-onalar ishtirokida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolariga bag'ishlangan suxbat, uchrashuv, seminar, ma'ro'za va baxs-munozaralarni tashkil etish.

4. Qizlarda zukkolik, donolik, chaqqonlik, uddaburonlik, tashabbuskorlik kabi xislatlar, shuningdek, nafosat xis tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beruvchi turli tanlovlarni o'tkazish.

5. Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

Oila va jamoatchilik o'rtasida yuzaga kelgan hamkorlikning aniq maqsadga yo'naltirilganligi, mavzu doirasida yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida ko'ra olish, ularni o'z vaqtida xal etishga intilish, muayyan muammolarni xal etishda hamjihatlik ko'rsatish, mukammal ishlab chiqilgan dastur asosida faoliyat yuritish, ilg'or tajribalarni aniqlash va ularni ommalashtirishning tezkor amalga oshirilishi kabi xolatlar qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda borasida bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni subyektlarining faoliyatlari quyidagi mazmunda namoyon bo'ladi:

1. Nikox va oila munosabatlari, oilaviy hayotni tashkil etish, uy xo'jaligini boshqarish, oila a'zolari o'rtasidagi muomala (qaynota-kelin, qaynona-kelin,

qaynsingil-kelin, qayni-kelin, turmush o'rtog'i va ayol, ona va bolalar) ni tashkil etish, turli taom va pishiriqlar pishirish, mexmon kutish, tikish bichish ishlarini bajara olish, oila a'zolari salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, shaxsiy gigiyenani saqlash qoidalari xususida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish, shaxsiy gigiyenani saqlash (xususan, xayz sikli davrida o'zini tutish qoidalariga amal qilish), biologik qovushishning mohiyatini tushunish, tartibsiz intim munosabatlarining inson organizmiga salbiy ta'siri, turli xil tanosil (venerologik) kasalliklar zaxm (sifilis), so'zak, shankr, trixomonoz, granulema, SPID, shuningdek, bepushtlik kabi kasalliklarning keltirib chiqaruvchi omillar, ushbu kasalliklar kelib chiqishining oldini olish chora tadbirlari (xususan, nikoxdan oldin kelin hamda kuyovlarning maxsus tibbiy ko'rikdan o'tishlarini ta'minlash), ixtiyorsiz xomiladorlikning oldini olish, farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yish, oila byudjetini yaratish, undan oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish kabi masalalar yo'zasidan nazariy va amaliy bilimlarni berishga qaratilgan ma'ro'za, seminar, trening, suxbat, uchrashuv, ko'rik tanlov, baxs, munozara va davra suxbatlarini tashkil etish, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzular yo'zasidan esa ota-onalar hamda qizlar o'rtasida tushuntirish, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.

2. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida oilalarga amaliy metodik yordam ko'rsatish, ya'ni, ta'lim hamda tibbiy muassasalari, davlat ("Oila" ilmiy - amaliy markazi, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" Markazi, turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi nashriyotlar, chunonchi, Abu Ali ibn Sino nomidagi, Fan, o'qituvchi va Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotlari) hamda nodavlat tashkilotlar ("Sog'lom avlod" jamg'armasi, "Ona va bola skrining" Markazlari), Respublika "Kamolot" ijtimoiy harakati kabi subyektlar, shuningdek, tadqiqot etilayotgan yoki turdosh muammolar yuzasidan tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar mohiyati, yakunlari to'g'risidagi ilmiy, ilmiy ommabop, ommabop hamda metodik asarlarning yaratilishiga erishish, mavjud muammolar bo'yicha mutaxassis psixolog, pedagog, xuquqshunos, fiziolog va tibbiyot xodimlarining yordamlarini uyushtirish.

3. Oila muhitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ko'zga tashlangan muammolarni barataraf etishga qaratilgan davolash (profilaktik) yoki tiklash (reabilitasiya) ishlarini yo'lga qo'yish (qizlarda balog'at yoshi davrida yuzaga kelgan ayrim ginekologik kasalliklarning oldini olish, davolash (profilaktika) ishlarini tashkil etish, oilalarni bu borada moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash.

### **3.2 Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning shakl va vositalari.**

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab, o'zoq muddatli hamda o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etuvchi faoliyat jarayoni bo'lib, mazkur jarayon quyidagi yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi ijtimoiy oilaviy munosabatlar negizida amalga oshiriladi:

1. Oilaning moddiy ta'minotini yo'lga qo'yish (oila budjetini yaratish, oilaga tegishli shaxsiy xo'jalik (tomorqa hamda chorvachilik)ni barpo etish, undagi ishlarni yuritish, qo'shimcha daromad manbalari (xunarmandchilik, ijara dexqonchiligi yoki chorvachilikni tashkil etish)ni izlab topish, kasbiy faoliyatni olib borish va xokazolar).

2. Oila a'zolari (keksa, o'rta va yosh avlod vakillari) o'rtasida muomala munosabatlarini yo'lga qo'yish.

3. Oilaviy xordiq (maishiy hamda ma'naviy mazmundagi)ni tashkil etish (bo'sh vaqt hamda ta'til davrlarini birgalikda o'tkazish).

4. Oilaviy tadbirlarni uyushtirish (tug'ilgan kun, beshik, sunnat, muchal, nikox, kumush va oltin to'ylar, turli o'quv yurtlarini tamomlaganlik, birinchi maoshni olganlik, xukumat mukofotlari bilan taqdirlanganlik, xizmat yoki ilmiy soxada muayyan yutuqqa (xususan, ilmiy daraja yoki unvonga ega bo'lganlik munosabati bilan tashkil etiluvchi tadbirlar, aza bilan bog'liq marosimlar).

5. Farzandlar tarbiyasini tashkil etish, ularga ilm va hunar sirlarini o'rgatish.

6. Oila a'zolarining ijtimoiy munosabatlar jarayoni (qo'ni qo'shni, qarindosh urug', hamkasb hamda do'stlar bilan ijtimoiy aloqani tashkil etish)dagi qatnashuvi.

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan oilaviy hayotning bir maromda kechishini ta'minlash bir qator omillar mavjudligini taqozo etadi. Xususan:

a) oila a'zolarining ma'naviy axloqiy qiyofasi, muayyan axloqiy e'tiqodga egaliklari, ularning dunyoqarash hamda tafakkurlari ko'lamining kengligi;

b) oila a'zolari o'rtasida bir birini tushunish, shaxsiy istaklardan o'zgalar xoxish istaklarini yuqori qo'yish, ularni qadrlash, xurmat qilish, o'zaro yordamni tashkil etish tuyg'ularining qaror topganligi;

v) oila a'zolarining ijtimoiylashuv (ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroklari) darajasi.

Tadqiqot muammosi doirasida tashkil etilgan tajriba sinov ishlari jarayonida ushbu omillarga tayanib ish ko'rildi. Tajriba sinov ishlarini olib borish chog'ida biz qizlarni oila sharoitida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash oila tarbiyasining asos bo'lishi lozim degan xulosaga keldik. Zero, qizlarda dastlabki ma'naviy axloqiy sifatlar, mehnat hamda o'qish faoliyatini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarning shakllanishi ularni mustaqil hayotga tayyorlash jarayoni uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida oila sharoitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyat quyidagi shakllar asosida tashkil etilganda kutilgan natijani berishi mumkinligiga guvoh bo'ldik:

a) nikox va oilani shakllantiruvchi asoslar, nikox va oila qurish shartlari, oilaviy munosabatlar mazmuni, oila mustahkamlligini ta'minlovchi hamda oilada sog'lom psixologik muhitni yuzaga keltiruvchi omillar, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, shaxsiy, shuningdek, oilaning boshqa a'zolari salomatligini saqlash, oila byudjetini shakllantirish, undan oqilona foydalanish, oila muhitida farzandlar tarbiyasini tashkil etish, uy ro'zg'or yumushlari va oila xo'jaligini boshqarish, er-xotin munosabatlari, ota-ona va bolalarning burchlari kabi mavzularda uyushtiriluvchi suxbatlar.

b) "Qizlar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari", "Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida nimalarga e'tibor berish lozim?", "Ginekologik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar", "Balog'at davri murakkab jarayon",

“Komillikning ma’naviy asoslari”, “Muomala madaniyati va uni shakllantirish shartlari”, “Oila an’analari muqaddasdir”, “Oilaviy ajrimlarning oldini olish”, “Xalq pedagogikasida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarining yoritilishi”, “Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida jamoatchilikning ishtiroki” kabi mavzularda tashkil etilgan ma’ro’zalar.

v) “Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda nimalarga e’tibor berish lozim?”, “To’kis baxtning mezoni moddiy farovonlikmi?”, “Ibratli oila qanday bo’lmog’i kerak?”, “Namunali qaynona (kelin) o’zida qanday xususiyatlarni aks ettira olishi lozim?” kabi mavzularda o’tkazilgan baxs munozalar.

g) “Qizlar davrasi”, “Eng namunali kelin”, “Ibratli oila”, “Tadbirkor ayol”, “Ijodkor ayol” kabi mavzularda tashkil etilgan ko’rik (tanlov)lar;

d) “Oilaviy budjetni qanday shakllantirmoqchisiz?”, “Oila xo’jaligini qanday yo’lga qo’ymoqchisiz?”, “Oilaviy munosabatlarda yuzaga kelgan ziddiyatlarni bartaraf eta olasiz?” mavzularidagi seminar-treninglar

Qizlarni oila sharoitida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida yuqorida qayd etilgan shakllarda tashkil etilgan faoliyat samaradorligini mazkur jarayonda qo’llanilgan quyidagi metodlar ta’minlaydi:

1) ko’zatisish metodi (faoliyatni tashkil etishda ushbu metoddan foydalanish oilada tarbiya topayotgan qizlarning xatti harakatlarini ko’zatisish ularda hosil bo’layotgan ma’naviy axloqiy sifatlar to’g’risida muayyan ma’lumotlarga ega, shuningdek, qizlarning fiziologik hamda ruxiy xolatida ro’y berayotgan o’zgarishlardan xabardor bo’lish imkonini beradi);

2) suxbat metodi (mazkur metod yordamida qizlarning o’y fikrlari, ichki ruxiy kechinmalari, xis tuyg’ulari, orzu niyatlari, hayotiy intilishlari, maqsadlari, ularning hayotlarida sodir bo’layotgan o’zgarish yoki xodisalar (yangi tanishlar orttirish, dugonalari bilan xafalashib qolish, o’zi tanlagan kasbni o’zgartirish to’g’risidagi fikrning paydo bo’lishi, o’zi yoqtirgan to’garak (kurs)ga qatnashish istagidan voz kechish va xokazolar), hayotiy ideallari, oilaning boshqa a’zolari, do’stlari, tengdoshlari hamda sinfdoshlari bilan bo’lgan munosabatlarining mazmuni, o’quv predmetlari asoslarining o’zlashtirishdagi muvaffaqiyatlari yoki

muammolar va xokazolar yo'zasi dan o'zaro fikr almashish, ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi);

3) tushuntirish metodi (ushbu metod yordamida qizlarga mustaqil oilaviy hayotni yo'lga qo'yish jarayonida qo'l keladigan va oilaviy munosabatlarni tashkil etish, oila xo'jaligini boshqarish, turli taomlar tayyorlash, bichish tikish ishlarini bajarish, o'zining hamda oila a'zolarining salomatliklarini saqlash, er xotin munosabatlarini yo'lga qo'yish, oila byudjetini yaratish, undan maqsadga muvofiq foydalanish, farzandlar tarbiyasini tashkil etish chog'ida bilish zarur bo'lgan nazariy va amaliy ma'lumot (bilim)lar beriladi);

4) namoyish etish metodi (mazkur metod qizlarda mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'ladigan amaliy faoliyat ko'nikma hamda malakalarni xosil qilish uchun xizmat qiladi);

5) namuna ko'rsatish metodi (tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan tajriba sinov ishlari jarayonida mazkur metoddan foydalanish ham qizlarda mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi amaliy faoliyat ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish imkonini beradi);

6) baxs (munozara) metodi (mazkur metod yordamida qizlarda ommaviy axborot vositalari saxifalarida oilaviy turmush va uni tashkil etish, mustahkaml oilani shakllantirish, oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, oilaviy mojaro hamda ajrimlar, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yish, salomatlikni saqlash, pazandalik hamda bichish tikish sirlari xususida yoritilgan materiallar mazmuni bilan tanishish, ular to'g'risida fikr almashish, shuningdek, atrofda sodir bo'layotgan hamda oilaviy munosabatlar bilan bog'liq voqyea va xodisalar moxiyatidan o'zlariga tegishli xulosalar chiqarib olish, ularga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalarini xosil qilish mumkin. Oila a'zolari davrasida tashkil etilayotgan suxbatlar chog'ida baxs (munozara) metodidan foydalanish yanada samaralidir.

7) manbalar bilan ishlash (nikox, oila, oilaviy munosabatlar, oila tarbiyasi va uning moxiyati, Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar, mustahkaml oilani barpo etish, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish sir asrorlari

yo'zasidan fikr yuritilgan, ulug' mutafakkirlar, tajribali oila soxiblari, mutaxassislarning qarashlari bitilgan adabiyot (manba)lar mazmuni bilan tanishish, ulardan muayyan nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish qizlar uchun mustaqil oilaviy hayotni yo'lga qo'yish borasida ma'lum tajribalarni orttirishga imkon beruvchi ushbu metod qizlarning tafakkur va dunyoqarashlarini boyib borishini ham ta'minlaydi).

8) rag'batlantirish metodi (bizga yaxshi ma'lumki, rag'bat shaxsga istiqbol faoliyatini tashkil etish uchun ma'naviy rux, kuch bag'ishlaydi. Shu bois oila sharoitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ular tomonidan amalga oshirilgan, ma'lum ma'noda muvaffaqiyatli bo'lgan xatti harakat, faoliyat to'g'risida oila a'zolari davrasida qayd etib o'tilishi, bunday harakatlarning ma'qullanishi, chunonchi, "barakalla". "buning uddasidan chiqishingga ishonar edim", "men ham buni (muayyan harakat, faoliyatni) bajara olishingga ko'zim yetgan edi", "bu yumushni sifatli bajarilishi uchun astoydil harakat qilganing ko'rinib turibdi, yasha" va xokazo kabi so'zlarning e'tirof etilishi qizlarda o'z kuchlari, layoqatlariga ishonchni tug'diribgina qolmay, balki ularni o'z ustilarida tinimsiz izlanishga undaydi. Rag'batlantirish metodi yordamida qizlarda ijobiy sifatlar shakllanadi).

9) jazolash metodi (qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida jazolash metodidan samarali, maqsadga muvofiq foydalanish ham pedagogik jihatdan to'g'ri sanaladi. Biroq jazolash metodining moxiyati qizlarga jismoniy azob berishdan iborat emasligini yoddan chiqarmaslik lozim. Jazolash metodidan foydalanish oilaviy munosabatlarni tashkil etish, oila xo'jaligini boshqarish chog'ida qizlar tomonidan bajarilgan, biroq muvaffaqiyatsiz xatti-harakat yoki faoliyatlar yo'zasidan o'z fikrlarini bildirish, qoniqmaganlik yoki norozilik tuyg'ularini bildirish, tanbex berish, yo'l qo'yilgan xato yoki kamchiliklarni ularning o'zlariga ko'rsatish, oila a'zolari o'rtasida izza qilish, uyaltirish kabi harakatlar asosida bo'lishi maqsadga muvofiqdir).

10. Interfaol metodlar (qizlarda shaxsiy va ijtimoiy faollikni kuchaytirish maqsadida qo'llaniluvchi interfaol metodlar ayni vaqtda ularda mustaqil fikrlash,

o'z-o'zini tarbiyalash, faoliyatiga tanqidiy baxo berish kabi sifatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Tajriba jarayonida respondentlarda oilaviy hayotni tashkil etish layoqatini shakllantirish maqsadida ular ishtirokida «Muammoli vaziyat», «Aqliy xujum», «Klaster», hamda «Rolli o'yin» kabi metodlar asosida amaliy faoliyat tashkil etildi.

Muammoli vaziyat metodi - o'smir qizlar tomonidan ular e'tiboriga xavola etilgan oilaviy-hayotiy vaziyatlar (xususan, qaynona va kelin o'rtasida yuzaga kelgan muammoning oldini olish, farzandning otasi tomonidan inkor etilgan buyumni sotib olishga bo'lgan ishtiyoqning so'nishi yoki buning oqibatida uning harakterida yuzaga kelgan qaysarlik, atrofdagilarga nafrat bilan qarash tuyg'usini bartaraf etish, oilaviy byudjetning ko'tarmaganligi bois qizni tug'ilgan kunini dugonalari bilan o'tkaza olmaslikka tayyorlash va xokazo vaziyatlarni taxlil qilish hamda ularning yechimini topishga asoslangan metod.

Aqliy xujum metodi - oilaviy turmushga oid muammolarni xal etishda respondentlar tomonidan bildirilgan mustaqil fikr va muloxazalarni o'zaro umumlashtirib, ular asosida ma'lum, yagona yechimga kelishni ta'minlovchi metod.

Klaster metodi - yaxlit xolda olingan oilaviy hayot yoki uning ma'lum yo'nalishi (masalan, oila byudjetini yaratish, ota-onalar va farzandlarning bir-birlari oldidagi xuquqiy majburiyatlarini klaster (asosiy tushuncha)lar yordamida ifodalash asosida o'smir qizlarda ular borasidagi umumiy tushunchalarni xosil qilishga yo'naltirilgan metod.

Rolli o'yin metodi – o'smir qizlar tomonidan hayotiy vaziyatlarning turli shart-sharoitlarini saxnalashtirish asosida ko'rsatib beruvchi metod bo'lib, muayyan rollarni ijro etish jarayonida ularda oilaviy hayot borasidagi ma'lum ko'nikmalar shakllanadi.

Qizlarni oila sharoitida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida pedagogik ta'sir vositalarining kuchiga murojaat etilishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan tajriba sinov

ishlarini tashkil etish chog'ida pedagogik ta'sir ko'rsatishning quyidagi vositalari samarali ekanligi aniqlandi:

1. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida olib borilgan ta'lim va tarbiya. Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan (mazkur o'rinda qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash) ta'lim va tarbiya ishlarini olib borish asosida qizlarda oilaviy hayotni tashkil etish borasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

2. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ularda ilgari surilgan g'oyalardan foydalanish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ularda ilgari surilgan g'oyalar qizlarda oilaviy hayotni tashkil etish, oila a'zolari o'rtasida muloqot munosabatlarni olib borish chog'ida o'zbekona urf odatlar (kattalarga xurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish, mexmonlarga xurmat ko'rsatish, xovli, uy joylarni ozoda tutish, oila sirlarini oshkor etmaslik, oilaviy masala yoki muammolarni qarindosh urug'lar bilan maslaxatlashib xal etish, oilaviy tadbirlarni ko'pchilik ishtirokida o'tkazish va xokazolar), xayoli, iboli, samimiy, kamtarin va mehnatsevar bo'lish, farzandlar tarbiyasini olib borishda milliylikka e'tibor berish borasida ma'lum bilim hamda ko'nikmalarning shakllanishiga zamin xozirlaydi.

3. Milliy madaniy meros namunalari (xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi, adabiyot, san'at, ilm fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari) asosida qizlarda oilaviy hayotni tashkil etish, mustahkaml oilani barpo etish, oilada sog'lom ruxiy muhitni qaror toptirish borasidagi tushunchalar shakllanadi.

4. Ommaviy axborot vositalari saxifalari orqali berilayotgan materiallar qizlarga mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish, oila tinchligi va farovonligining garovi bo'lgan omillarni yaratish, oila xo'jaligini boshqarish, oila byudjetini xosil qilish, undan oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish, oila a'zolari o'rtasida muayyan munosabatlarni tashkil etish, shaxsiy gigiyena hamda oila a'zolarining salomatligini saqlash, er xotin munosabatlari mazmuni, pazandalik va tikish bichish sirlarini o'zlashtirish, farzandlar tarbiyasini olib borish to'g'risidagi

bilimlarni berish yoki bu borada orttirilgan bilimlarni mustahkamlash bilan birga, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda boyitishga yordam beradi.

5. Ota-onalar (yoki oilaning boshqa a'zolari, xususan, keksa avlod vakillari) tomonidan ko'rsatilayotgan shaxsiy namuna qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Zero, qizlar shaxsiy hayotiy tajribani, eng avvalo, ota ona, buva buvi, aka uka, opa singil, qarindosh urug', qo'ni qo'shni, pedagoglar, shuningdek, do'stlar, xullas, ular bilan o'zaro ijtimoiy aloqada bo'luvchi kishilarning xatti harakatlari, yurish turishlari, muomala odobi, ma'naviy axloqiy qiyofasi orqali o'zlashtiradilar.

6. Oila sharoitida qizlar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida ibratli oilalar yoki katta hayotiy tajriba, ma'naviy axloqiy dunyoqarashga ega bo'lgan kishilar hayoti va faoliyatidan misollar keltirish qizlarda ulardan namuna, o'rnak olish tuyg'usini uyg'otadi, ularning ibratli jihatlarini o'zlashtirishga nisbatan rag'batni kuchaytiradi. Bu o'rinda o'smir yoki o'spirin qizlarda balog'at davrida ko'zga tashlanuvchi o'zlari uchun hayotiy idealni tanlashga nisbatan yuzaga kelgan istakka tayanib ish ko'rish oila sharoitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

7. Oila sharoitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida so'z (nutq) kuchiga tayangan xolda faoliyat yuritish kutilgan natijalarni berishga xizmat qiladi. Zero, so'z (nutq) yordamida qizlarga muayyan masalalar yo'zasidan ma'lumotlar berish, ularning bilimlarini shakllantirish va oshirib borish, ular tomonidan amalga oshirilgan xatti harakatlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi xaqida fikr bildirish, rag'batlantirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini yuzaga keltirish, muayyan voqeya hamda xodisalarga nisbatan shaxsiy yondoshuvni qaror toptirishga undash imkoniyati yuzaga keladi.

8. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash chog'ida moddiy ashyolar hamda ularning qadriyatdorlik xususiyatlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Masalan, buva hamda buvi, ota yoki ona, shuningdek, oilaning boshqa a'zolariga tegishli bo'lgan buyum va yodgorliklar qizlar tomonidan oila an'alariga nisbatan xurmat bilan munosabatda bo'lish, oila

muqaddasligi, uning sha'ni, obro'si uchun kurashish oilaning har bir a'zosi uchun sharafli burch ekanligini chuqur anglab yetilishiga olib keladi.

## XULOSA

Bizga ma'lumki, hozirda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-xunar egasi bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda. Lekin bularning o'zi yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon bo'lishligi uchun yetarli emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan ham ma'lumotlar berishga to'g'ri keladi. Chunki mustahkam oiladagina farzandlarga xoxlagancha yashashi uchun imkon yaratiladi.

Ko'zatlardan ma'lum bo'ladiki, oila qurgan ayrim yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasliklari, o'zaro munosabatlarida kelishmovchilik, bir-birini hurmat qilmaslik, jiddiy mas'uliyat hissining yetishmasligi, yengil-yelpi hayot kechirishga o'rganib qolish, turli fiziologik va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilmaslik xolatlari ko'rinadi. Demak, yoshlarni oila munosabatlariga psixologik tayyorlashda ushbu jihatlarga e'tiborni qaratish zarurati yuzaga keladi:

1. O'quv yurtlarida yoshlarga fanlarini o'qitish bilan barobarida, o'zaro munosabatlarda ahloqiy munosabatlarni to'g'ri shakllantirish va to'g'ri yo'lga qo'yishni o'rgatish;

2. Ularga yuksak insoniy his tuyg'ularni anglash va qadrlashni o'rgatish;

3. Yoshlarda ijtimoiy, huquqiy, biologik, ma'naviy jihatdan bilimdon bo'lishlariga oid ilmiy tushunchalar va haqqoniy tasavvurlarni hosil qilish;

4. Yigit va qizlarni jismoniy baquvvat, sog'lom, yuqori madaniyatli, barqaror qadriyatli, xulq-atvorli, irodali shaxs sifatida shakllanishiga yordam berish;

5. Oilaning yuksak qadriyat ekanligini anglashga, oilada o'zaro burchni yuqori qadrlashga o'rgatish.

Sog'lom oila vujudga kelishi uchun, eng avvalo, jamiyat va davlat qayg'urishi, shunga zamin yaratib berishi lozim. Shundagina mustahkam oila dunyoga keladi. Oila sog'lom bo'lsa, jamiyat sog'lom, mamlakat qudratli, yurt tinch-osoyishta bo'ladi.

Hozirgi kunda oilaning muqaddasligi hamda nikoh mas'uliyati bo'yicha turmush qurayotgan yoshlarning bilim va tushunchalarini boyitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, oila qurish har bir inson hayotida ulkan hodisa

ekanligi, bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi tushuntirilayapti. Ikkinchidan, voyaga yetayotgan o'smirlar, avvalo, qizlarimiz ongida oila mas'uliyati, ularni turmush qurishga tayyorlash bo'yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Uchinchidan, yosh oilalarning huquqiy savodxonligini tubdan yaxshilash, oilada bolaning qonuniy huquq va manfaatlari himoyasi bo'yicha tadbirlar tashkil qilinmoqda. Chunonchi, davra suhbatlari, seminarlarda mutaxassislar yordamida oila qurishning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy jihatlari, balog'at yoshi bilan bog'liq biologik, fiziologik o'zgarishlar hamda bu davrda nimalarga e'tibor berish lozimligi, qarindosh-urug'chilik asosida oila qurishning zararli oqibatlari, qolaversa, sanitariya, shaxsiy gigiyena masalalari batafsil tushuntirib berilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent: O'zbekiston 1992-62 b.
2. Karimov I.A. «Yangi uyni qurmay turib, eskisii buzmag» – Toshkent: O'zbekiston 1993. – 24 b.
3. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz». 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
4. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch». Toshkent 2008
5. «O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» – Toshkent: Sharq, 1997-65 b
6. «Axloq-odobga oid hadis namunalari». – Toshkent: Fan, 1990, – 72 b.
7. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160 b.
8. Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi» –Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.
9. Yo'ldoshev J.G'. Xasanov S. «Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar». – Toshkent: O'qituvchi 1992, – 28 b.
10. Kaykavus. «Qobusnoma». – Toshkent: O'qituvchi 2010, – 118 b.
11. Musurmonova O. «Oila ma'naviyat-milliy g'urur». – Toshkent: O'qituvchi. 1999, – 200 b.
12. Xolmatova M. “Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi” Toshkent. 2000 y
13. Ochilova M. «Axloqiy tarbiya». – Toshkent: O'qituvchi, 1979, – 232 b.
14. Jo'raev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. T.: “O'qituvchi”, 1994.
15. Musurmanova , Abduraximova F. Mahallada qizlarning sog'lom turmush tarzi T. 2008 y.
16. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. T.: 1996 y.
17. Ochil S. Mustaqillik va tarbiya masalalari. T.: “O'zbekiston”, 1995.
18. Popov G.X. O'quvchining shaxsiy ishini tashkil etish. T.: “O'qituvchi”, 1992 y.

19. Solixojeva S.S. Bolalar va o'smirlar gigenasi. T.: "Ibn Sino", 1991.
  20. Uzoqov X., G'ozieva E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T.: "O'qituvchi". 1992.
  21. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy, 1993.
  22. Frolov P.T. Yosh direktor maktabi. T.: "O'qituvchi", 1991.
  23. Jo'raev A. Tarbiyaviy darslar o'tish. T.: "O'qituvchi", 1994.
  24. Kamalov N va boshqalar. "Tibbiy odobnoma" Samarqanq 1995 y
  25. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.: "O'qituvchi", 1995.
  26. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. T.: "Fan", 1994.
  27. O'zbekiston matbuoti. "2012 yil Mustahkam oila yili" T. 2012 yil 1-2 son
  28. M.X.Xalilov. Bilish jarayonlari psixologiyasi –SamDU,1998.
  29. E.G'oziyev. Intellect psixologiyasi. –T.: O'qituvchi 1998.
  30. E.G'oziyev. Psixologiya muammolari. –T.: O'qituvchi 1996.
  31. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. –T.: O'qituvchi, 2011.
  32. E.G'oziyev. Tafakkur psixologiyasi. –T.: O'qituvchi,1990.
  33. S.M.Nemov.Psixologiya.-M.:1994.
  34. A.I.Ivanov, M. Zufarova. "Umumiy psixologiya" T. 2010
  35. M.Voxidov.Bolalar psixologiyasi.
  36. E.G'oziyev.Psixologiyadan maruza matni. T.: 2006.
  37. Sh. Baratov. "O'quvchi shaxsini o'rganish usullari" T. 2009
  38. M.G.Davletshin. Psixologiyadan maruzalar matni. 2002.
  39. Davletshin M.G, To'ychiyeva S.M. «Umumiy psixologiya» T.2002.
  40. Davletshin M.G «Zamonaviy maktab o'qituvchisi». T.1998y.
- www. Pedagog. uz.
- www. Zionet. uz.
- [www.Uznet.uz](http://www.Uznet.uz)
- www. Psixologos. ru.
- www. Mir psixologiya.
- www. SamD. Uz.

# I L O V A

## 1 - test. Nikoxga ma'naviy tayyorlik.

Tekshirilayotgan odam quyida keltirilgan 16-ta savol-tasdiqlarning har biriga berilgan javoblardan birini, ya'ni o'z qarashlariga mos kelganini tanlab javob berishi kerak.

Bu yerda;

- 1-butunlay qo'shilaman -5 ball
- 2-qo'shilaman -4 ball
- 3-biror narsa deyish qiyin -3 ball
- 4-qo'shilmayman - 2 ball
- 5- mutlaqo qo'shilmayman - 1 ball

degan javoblarga mos keladi.

T.r	Tasdiqlar	1	2	3	4	5
1	Agar odamlar oila-oila bo'lib yashashni bas qilsalar, unda hayot nihoyatda jozibasiz bo'lib qolgan bo'lar edi.					
2	Oilaviy hayotning yaxshi bo'limida maxsus bo'limlardan ko'ra omadning ahamiyati kattadir.					
3	Erta boshlangan jinsiy hayot nafaqat sog'liqqa, balki bo'lajak oilaning muvaffaqiyatiga ham katta ziyon keltiradi					

4	Agar turmush o'rtog'i bilan yumshoq munosabatda bo'linsa, uning holati e'tiborga olinaversa, unga achinilsa, hamdardlik qilinaversa, o'z ko'zlaganingga erishish juda qiyin bo'ladi.					
5	Topshirilgan ishni oxirigacha bajarish-bu men uchun burchdir.					
6	Ota-onalar va ularning voyaga yetgan farzandlari bilan bo'ladigan nizolar bartaraf qilinib bo'linmaydigan muqarrar nizolardir.					
7	Men o'z tengdoshlarim bilan bo'ladigan nizolarni bartaraf eta olaman.					
8	Xotin (er) oldida o'z odatlaridan qaytishi yoki ularni o'zgartirishi kerak emas, chunki bu tobelikka olib keladi.					
9	Har kim o'z baxtini yaratuvchisidir, degan ibora oilaviy hayotga butunlay taalluqlidir.					
10	Men, oila ko'proq hayotdan qoniqqanlikka olib kelishiga ishonaman.					
11	Agar odamda ezgulik, xushmuomalalik bor bo'lsa, demak oilaviy hayot uchun juda ko'p narsa bordir.					

12	Agar oilaviy hayot xuddi orzu qilinganidek yaxshi tashkil qilinmayetgan bo'lsa, unda xech qanday chora uning bo'zilishining oldini ola olmaydi, shuning uchun yaxshisi yaxshisi ajrashgan ma'qul.					
13	Men doimo ota-onamni tushunishga harakat qilaman, agar ularning talablari haqligiga ishonsam, ularga bo'ysunaman.					
14	Kishining ayrim beparvoligi va yengiltakligi hatto oilaviy hayotni mustahkamlaydi ham.					
15	Kimki o'zini oilaviy hayotga to'la tayerman desa, tezda o'zini qayta baholashga to'g'ri keladi. Chunki doimo nimanidir o'rganish va o'zida nimanidir o'zgartirishga to'g'ri keladigan narsalar mavjud.					
16	Qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqotda bo'lar ekan, odamga o'zini atay xushmuomala va sertakalluf tutishning zarurati yo'q.					

### Natijalarni qayta ishlash

Tasdiqlarning yuqoridagi ro'yxatdagi tartib raqamlari bo'yicha toq va juft raqamli tasdiqlar bo'yicha olingan ballar yig'indilari alohida-alohida hisoblab chiqariladi.

S1-toq nomerlar yig'indisi

S2-juft nomerlar yig'indisi.

Natija quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi;

$$K = \frac{32 + C1 + -C2}{64} * 100\%$$

Agar K 50%dan kam bo'lsa-oilaviy hayotga ma'naviy tayorgarlik past darajada bo'ladi.

Agar K 50%dan ko'p bo'lsa-oilaviy hayotga ma'naviy tayorgarlik o'rtacha va yuqori darajada bo'ladi.